

arab

N.M. Orifxo'jayev

**“ARAB VA O'ZBEK TILLARI
QIYOSIY GRAMMATIKASI”**

Toshkent - 2011

Ushbu qo'llanmada berilgan ma'ruza matnlari orqali arab va o'zbek tillari grammatikasini qiyosiy o'rganish, ikki tilning fonetik, morfologik va sintaktik jihatlarini cholishtirma tarzida o'rganib tahlil qilish, ular o'rtasida mavjud bo'lgan o'xshash va farqli hamda munozarali jihatlarini ko'rsatib berish va bu ma'lumotlarni talabalar tomonidan ham nazariy ham amaliy jihatdan qo'llay bilish malaka va ko'nikmalarini shakllantirish nazarda tutilgan.

Ushbu qo'llanma bakalavr yo'nalishidagi IV kurs talabalariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

f.f.n., dotsent T.Sh.Qodirov

Taqrizchilar:

f.f.n., dotsent Rustamiy S.
f.f.n., professor Aripov Z.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti O'quv-uslubiy kengashining qarori (22.08.2011 y., 1-sonli bayonnoma) bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Mazkur qo'llanmada turli xil oilalarga mansub bo'lgan arab va o'zbek tillari grammatikasidagi eng ko'p uchraydigan grammatik hodisalarni qiyosiy nuqtai nazardan o'rganib, tahlil va sintez qilish orqali talabalarga mazkur ikki til grammatikasi haqida nazariy va amaliy bilim berish ko'zda tutilgan.

Qo'llanmada turli til oilalariga mansub bo'lmish arab va o'zbek tillarini qiyosiy o'rganish jarayonida ikki til fonetikasi, morfologiya va sintaksisi bo'limlarida uchraydigan tafovut va o'xshash jihatlarini, arab va o'zbek tillaridagi asosiy tayanch grammatik qoidalarni ajrata bilishlari, ularning nutqda qo'llanish ko'lamini belgilay olishlari, arab adabiy tili va lahjalarida ayrim grammatik qoidalarining qo'llanish xususiyatlarini bilishlari va ularni adabiy til normalaridan farqlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kabi jihatlar ham e'tiborga olingan.

Ushbu qo'llanma bakalavr yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Bundan tashqari qo'llanma zamirida olingan bilimlar esa o'rta umumta'lim maktabi, akademik litsey o'quvchilariga arab tilini o'qitish jarayonida qo'llab istifoda etilishi mumkin.

Qo'llanma asosida talabalar tomonidan olingan bilimlar kelajakda ular faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat muassasalaridagi mutaxassis sifatidagi maqomlarini yanada yuqori saviyaga ko'tarishga yordam beradi.

MA'RUZA № 1

Mavzu: Arab va o'zbek tillarining grammatik qurilishi haqida umumiy qiyosiy ma'lumot

Dars o'quv maqsadi: Arab va o'zbek tillarining grammatik qurilishi haqida umumiy ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Jins va kelishik;
2. Grammatik ma'nolar, yordamchi so'zlar;
3. Tuslanish sistemasi;
4. So'zlar, morfemalar.
- 5.

Asosiy savollar:

1. Ikki til grammatik qurilishi haqida umumiy qiyosiy ma'lumot.
2. Yozuv va imlo haqida umumiy ma'lumot.
3. Arab va o'zbek tillarining fonetik qurilishi.
4. Diftonglar. O'zaro farqlanuvchi fonemalar.

Arab tili somiy tillar oilasining janubiy shahobchasiga oid bo'lib, u o'z geneologik taraqqiyotida uch bosqichni bosib o'tdi: qadimgi arab tili, klassik adabiy arab tili va zamonaviy adabiy arab tili. Grammatik xususiyatlariga ko'ra arab tili flektiv tillar guruhiga mansub, biroq u ma'lum darajada agglyutinativlik xususiyatlarini ham saqlab qolgan.

Arab tili 22 arab davlatining rasmiy davlat tilidir. Qadimgi adabiy arab tiliga Arabiston yarim oroli va Suriyaning janubidagi ko'xna obidalar va qoyalardan topilgan yozuvlar misol bo'ladi. Ularning eng qadimgilari eramizning IV-VI asrlariga oiddir.

Arab tiliga quyidagilar xos:

1. Arab grammatikasidagi so'zlar 3 guruhga bo'linadi. Bular: 1. Ism (الاسم); 2. Fe'l (الفعل); 3. Harf (الحرف). Morfologik xususiyatlariga ko'ra bu 3 guruhga mansub so'zlarni bir-biridan oson farqlash mumkin. Grammatik tegishlilik oson va aniq aniqlanadi.

2. So'zlarning grammatik ma'nolari, morfologik, sintaktik va so'z tartibi orqali ifodalanadi.

3. Ismlarning ma'lum kelishik tizimi bo'lib, u ismlarning aniqlik va noaniqligiga ishora qiladi. Bundan tashqari ular muzakkar va muannas jinsga, uchta grammatik son ko'rsatkichlariga ega.

4. Fe'llar rivojlangan tuslanish sistemasibilan xarakterlanadi.

O'zbek tili esa turkiy tillar oilasining janubiy-sharqiy (O'rta Osiyo) yoki qarluq guruhiga mansub.

O'zbek tili agglyutinativ tillar guruhiga mansub bo'lib, quyidagi xususiyatlarga ega:

1. So'zlar morfemalarga oson bo'linadilar;
2. Har xil suffikslar muntazam ravishda so'z negiziga qo'shiladi va grammatik shakl va ma'nolarni ifodalaydi;
3. Har bir suffiks bitta ma'noga egadir.

Yozuv va imlo haqida ma'lumot

Hozirgi arab tili alifbosi 28 ta undosh harfdan iboratdir. Harflarning aksariyati to'rt yozma shaklga ega va bosh, kichik harflar farqlanmaydi. Arab harflari chapdan o'ngga yoki tepadan pastga vertikal yo'nalishda yoziladi. 28 undoshdan alif mustaqil tovushni ifodalamaydi. Faqatgina undosh oldin(gi harfning) harakat(i) fatha () bo'lsa, u cho'ziq a () unlisini ifoda etish mumkin. Arab tilida 3 ta qisqa va 3 ta cho'ziq unli bor.

Arab alifbosiga quyidagi belgilar qo'shiladi:

1. (tanvin) fatha ($\overset{\circ}{\text{}}$);
2. (tanvin) damma ($\overset{\circ}{\text{}}$);
3. (tanvin) kasa ($\overset{\circ}{\text{}}$);
4. sukun ($\overset{\circ}{\text{}}$);
5. tashdid ($\overset{\circ}{\text{}}$);
6. madda ($\sim$).
7. hamza ($\overset{\circ}{\text{}}$)

Ichi beshta belgi undosh harflar ustiga qo'yiladi. Madda belgisi faqat alifning ustiga qo'yiladi.

Hamza belgisi mustaqil tovushni ifoda etmaydi. U faqatgina qisqa unlilar va sukun yordamida ushbu belgilarga xos tovushlarni ifodalaydi. Hamza ا و ي harflarining ustiga qo'yiladi hamda o'zi o'rindiqsiz mustaqil yozilishi ham mumkin.

O'zbek yozuvlari tarixida amalda ishlatilib kelingan asosiy yozuv sistemasini fonografik, ya'ni tovush yozuvi, harfiy yozuv yoki alifbo tashkil etgan. O'zbek xalqi O'rta Osiyoning boshqa xalqlari singari oromiy, yunon, so'g'd xorazm, kushon, eftalit, pahlaviy, suriya, hind, urxun, uyg'ur, arab yozuvlari kabi bir qancha yozuvlardan foydalangan. O'zbek yozuvlari tarixini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin.

1. 1917 yilgacha arab alifbosi;
2. 1928 yildan boshlab lotin alifbosi;
3. 1942 yildan kirill alifbosi;
4. 1996 yildan lotin alifbosi.

Yangi o'zbek lotin alifbosi 29 harf va bir belgidan iborat bo'lib, 31 tovushni ifodalaydi.

Bo'g'in va urg'u

Arab tilida bir bo'g'inli so'zlar undov so'zlar bo'lishi mumkin. Ko'pgina so'zlar 2 va undan ortiq bo'g'indan iborat. O'zbek tilida esa so'zlar bir bo'g'inli yoki ko'p bo'g'inli bo'ladi. Arab va o'zbek tillarida bir bo'g'inda bitta unli tovush bo'lishi shart.

Arab tilida bo'g'in 3 xil bo'ladi:

1. Qisqa bo'g'in – bir undosh va unlidan iborat: xa-ra-ja – u chiqdi;
2. Cho'ziq bo'g'in – bir undosh va cho'ziq unlidan yoki undosh + qisqa unli + undoshdan tarkib topgan: qal-bun – yurak;
3. O'rta cho'ziq bo'g'in – undrsh + cho'ziq unli + undoshdan iborat: xat-tun – muhim.

Qaysi tovush bilan tugashiga qarab bo'g'inlar 2 xil bo'ladi:

A) ochiq bo'g'in (agar unli tovush bilan tugasa): la (لا) – yo'q.

B) yopiq bo'g'in (agar undosh tovush bilan tugasa): bar-qun (برق) – telegraf.

Arab tilidagi urg'u o'zbek tilidagi urg'udan quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

1. Urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'inga qaraganda ovozni ko'tarib biroz kuch bilan talaffuz qilinadi;
2. Urg'u hech qachon oxirgi bo'g'inga tushmaydi;
3. Ikki bo'g'inli so'zda urg'u birinchi bo'g'inga tushadi: (صف) saf-fun;

4. Ko'p bo'g'inli so'zlarda urg'u odatda cho'ziq bo'g'inga tushadi: (يعملون)

5. Qisqa bo'g'inlardan iborat bo'lgan ko'p bo'g'inli so'zlarda urg'u odatda ikkinchi bo'g'inga tushadi: in-qa-la-ba (انقلاب).

O'zbek tilida bo'g'inlar soni ortgan sayin urg'ularning joylashishi va darajasi o'zgaradi. Ot, sifat va fe'llarda birinchi darajali urg'u, asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi: qa-lam, chinor, chiroyli, ko'rmoq, demoq.

Ammo ko'p bo'g'inli so'zlarning ayrim shakllarida birinchi darajali urg'u birinchi bo'g'inga ham tushishi mumkin: ko'ring, yetmish.

O'zbek tilida affikslar 2 guruhga bo'linadi: urg'uli va urg'usiz affikslar.

Ug'usiz affikslarga kesimlik (-man, -san, ...), o'xshatish (-day, -dek), kichraytirish – erkalash (-gina, -kina, -qina), donalik (-ta), chama (-tacha), son, sifat va ravish yasovchi –gan qo'shimchalari kiradi. Bunday affikslar qo'shilgan so'zlarda urg'u o'zak – negizning oxirgi bo'g'inida qoladi. So'zlarga urg'uli affikslar qo'shilganda esa, urg'u ana shu affikslarga ko'chadi.

Arab va o'zbek tillarining fonetik qurilishi va qiyosiy tavsifi

Nutq jarayonida qo'llaniladigan tovushlar unli va undoshlarga bo'linadi. Unli tovushlar talaffuz etilganda havo oqimi nutq organlaridan o'tayotganda to'siqqa uchramaydi.

Undosh tovushlar talaffuz etilganda havo oqimi to'siqqa uchraydi. Tovush paydo bo'lishi o'rinlarida nutq organlari taranglashgan holda bo'ladi.

Arab tilida jami 28 ta undosh harf bor. Ba'zi mualliflar o'z darsliklarida hamzani ham jarangsiz undosh deb, arab alifbosidagi undoshlarni 1 taga ko'paytirib ko'rsatadilar. Arab tilida 6 ta unli bo'lib, jami 36 ta fonema bor.

Arab tilida undosh tovushlar:

1. Hosil bo'lish usuliga ko'ra vuyidagilarga ajratiladi:

A) portlovchilar. Ularning hosil bo'lishida talaffuz organlarining to'la jipslashuvi natijasida havo oqimi kuchli to'siqqa uchraydi va tovush kuchli portlash bilan chiqadi. Masalan: ط ن ك

B) sirg'aluvchilar yoki sizg'aluvchi (frikativ) undoshlar. Bunday undoshlarning hosil bo'lishida talaffuz organlari to'liq yaqinlashmaydi, lekin havo oqimi ular orasidan kuch bilan o'tadi va sirg'alish hosil bo'ladi. Bu sirg'alish shovqinli bo'ladi. Masalan: فس

2. tovushning ishtirokiga ko'ra jarangsiz va jarangli undoshlarga bo'linadi. Jarangsiz undoshlarning talaffuzida tovush paychalari titramaydi. Masalan: دز

Jarangli undoshlarning talaffuzida esa tovush paychalari titraydi. Masalan:

3. hosil bo'lish o'rniga ko'ra quyidagicha tasnif qilinadi:

A) lab undoshlari. Ular qatoriga ikkala labning jipslashuvidan hosil bo'luvchi lab-lab (bilabial) undoshlari (ب م) va pastki lab va yuqori tishlarning orasida hosil bo'ladigan lab-tish (labiodek tal) undoshlari (ف) kiradi.

B) yumshoq yoki palatal undoshlar. Ular til o'rtasi qismining qattiq tanglayga tegishi yoki yaqinlashishi bilan hosil bo'ladi (ق).

G) bo'g'iz yoki tomoq, xalqum (loringal) undosh – tovushlar. Ularning hosil bo'lish o'rniga bo'g'iz (ع).

D) burun (sanor) tovushlar. Tovushlarning talaffuzida yumshoq tanglay pastga tushib hosil bo'ladi. Bunday tovushlar lab-burun (م) va tish-burun (ن) sanorlarga ajratiladi.

4. u va i bo'g'in hosil qila olmaydigan unlilar ham undosh tovushlar qatoriga kiradi (u, u).

5. itboq (emfatik) tovushlarning talaffuzida til uchi tishga yaqinlashadi yoki tish bilan birikadi, til o'rtasi esa yumshoq tanglayga yaqinlashadi va tovush kuch bilan chiqadi (ص ض ط).

6. yana shunday tovushlar borki, ular boshqa tovushlardan talaffuz vaqtida tovush paychalarining ajralishidan hosil bo'luvchi portlashning qo'shilishi bilan ajralib turadi (.) Bunday tovushlar "bo'g'iz portlovchisi" deb ataladi.

O'zbek tilida unlilar 2 ga bo'linadi: a) oldingi qator yoki til oldi unlilari: i, e, a; v) orqa qator yoki til orqa unlilari: u, o, a. Ya'ni, jami 6 ta unli tovush bor.

O'zbek tilida unlilar yonma-yon kelmaydi. Qo'sh unlilar arab tilidan kirgan so'zlarda uchraydi: inshoat, taassurot, matbuot.

O'zbek tilida unlilar 3 xil yo'l bilan guruhlanadi:

1. tilning gorizonttal harakatiga ko'ra 2 ga bo'linadi:

A) old qator: a, e, i.

V) orqa qator: o, u, a.

2. tilning harakatiga ko'ra 3 ga bo'linadi:

A) yuqori tor: i, u.

V) o'rta keng: e, o.

S) quyi keng: a, o.

Arab tilidagi qisqa unlilar va cho'ziq unlilar talaffuzda turg'un hisoblanadi.

O'zbek tilida esa ba'zi so'zning birinchi undoshdan keyin yoki oxiri i harfi talaffuz etilmasligi mumkin. Kishi – [k(i)she], kichik [k(i)chik].

Undosh tovushlarga kelsak o'zbek tilida 23 ta undosh tovush, 23 ta harf belgisi bor. 1 ta fonema alohida harf bilan ifodalanmaydi. Joja, jiyda so'zlarida uchraydigan til oldi d j tovushi ham, jurnal, ajdar so'zlarida uchraydigan til oldi j ham bitta j bilan beriladi.

Undosh tovushlar tovush paychalarining harakati, holati va og'iz bo'shlig'ining qayerida to'siqqa uchrashiga faqat shovqindan iborat bo'lishi yoki ovoz shovqindan ustunligiga, shuningdek, talaffuz etilish usuliga qarab bir-birlaridan farqlanadi va quyidagicha guruhlanadi:

1. Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra:

2. Un paychalarining ishtirokiga ko'ra:

3. Hosil bo'lish usuliga ko'ra:

4. Hosil bo'lish o'rniga ko'ra:

5. Tarkibiga ko'ra.

Diftonglar

Arab tili unlilardan tashqari ikkita diftong: "au" va "aw" uchraydi. Ikkita unli tovush birikmasini ifodalagan tovushga diftong deyiladi. Masalan: mawjun- to'lqin, maydanun-maydon.

Diftonglar so'zda faqat undosh tovushlardan avval so'z boshida, so'z o'rtasida va so'z oxirida uchraydi.

O'zaro farq qiluvchi fonemalar

Arab tilidagi undoshlari ب ت ج خ د ر ز س ش غ ف ق ك ل م ن ه ي o'zbek tilidagi shu undoshlardan talaffuz jihatdan farq qilmaydi.

Quyidagi undoshlar o'zbek tilida uchramaydi:

ث ح ذ ص ض ط ظ ع و

ص ض ط ظ itboq undoshlar deyiladi. Bu tovushlar talaffuzining muhim sharti shuki, til orqasi yumshoq tanglayga ko'tariladi va tovush kuch bilan chiqadi. Itboq tovushlarning talaffuzi boshqa undoshlarga qaraganda ancha jadal, nutq organlari ancha tarang bo'ladi.

Arab tili fonetikasiga xos yana bir fonema hamzadir. Hamza portlovchi, jarangsiz, bo'g'iz undosh tovushi. U tovush paychalarining to'la birlashishi va ularning tovush chiqarishoralig'idan o'tilib chiqadigan kuchli havo oqimi ostida ochilishi natijasida hosil bo'ladigan kuchsiz shovqindir.

Bu tovushning hosil bo'lishi: yumshoq tanglay ko'tariladi. Va havoning burun bo'shlig'i orqali o'tadigan yo'li yopiq bo'ladi. Hamza tovushi biron unli tovush talaffuz qilinishidan oldin yoki talaffuz qilingandan keyin eshutiladi. Masalan: اقراء

Bu tovush "bo'g'iz portlovchisi" deb ham yuritiladi va u mustaqil fonemadir. Boshqa undoshlar kabi hamza ham tashdidlanadi.

Hamza tovushi hozirgi arab alfavitiga kiritilmay, yozuvda maxsus belgi bilan ifodalanadi.

Umuman, nutqdagi tovushlarning asosiy vazifasi so'zlarning ma'nolarini farqlashdir.

Nazorat savol va topshiriqlar:

1. Sonantlar deb qanday tovushlarga aytiladi?
2. Frikativ undoshlarga qaysi undoshlar kiradi?
3. Hosil bo'lish usuliga ko'ra arab tilidagi undoshlar qaysi undoshlarga bo'linadi?
4. Tilning vertikal harakatiga ko'ra o'zbek tilidagi unlilar necha turga bo'linadi.
5. Arab va o'zbek tilidagi undoshlarni nutq a'zosi ishtirok etishiga qarab tasniflang.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Arab va o'zbek tilidagi undosh tovushlarni ovoz va shovqinning ishtirokiga ko'ra, hosil bo'lish usuliga ko'ra, un paychalarining ishtirokiga ko'ra, hosil bo'lish o'rniga va tarkibiga ko'ra tasniflang.

Asosiy adabiyotlar:

1. B. Grande . Kurs arabskoy gramatiki v sravnitelno – istoricheskoy osveshenii. M. 1998g.
2. N.Ibragimov, M.Yusupov "Arab tili grammatikasi" T.1997y.
3. E.N.Mishkurov. Morfologicheskoy stroy sovremennogo arabskogo yazika. T.1992g.
4. G.Sh.Sharbatov. Sovremenniy arabskiy yazik. M.-1982g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Rustamova S. "Arab tili fonetikasi" T. 2000y
2. Anorbekova A. Mirzaev Sh. "Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruzalar majmuasi" T. 2007y
3. Shagal V.E. "Uchebnik arabskogo yazika". Moskva "Voen izdat" 1983g
4. Azim Hojiev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" T. 2002y

MA'RUZA № 2

Mavzu: Arab va o'zbek tillarida so'z turkumlari

Dars o'quv maqsadi: Arab va o'zbek tillaridagi so'z turkumlarining tasnifi, turlari haqida qiyosiy – tahliliy ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Ism, fe'l va harf.
2. O'zak – fe'l, ot.
3. اسم ظاهر , اسم مضمّر , اسم مبهم
4. Ot – ega, kesim.
5. الإشارةإسم , الإسم الموصول , الإستفهاماسم

Asosiy savollar:

1. Arab va o'zbek tillarida otlarning turlari.
2. Turdosh va atoqli otlar.
3. Kichraytirish va erkalash otlari.

Ma'lumki, arab tilida so'z turkumlari 3ga bo'linadi. Bular ot, fe'l va harf.

O'zbek tilida so'z turkumlari 10dan ortiqdir. Chunki, o'zbek tilida sifat, sifatdosh, ish-harakat nomi alohida so'z turkumi sifatida ko'riladi.

Arab tilida bi'zi hollarda o'zakdan fe'llar yasaliishi, ba'zi hollarda otlar yasaliib, o'z navbatida ulardan fe'l yasaliishi mumkin va nihoyat ba'zi o'zaklardan bir vaqtning o'zida ham ot, ham fe'llar yasaliishi mumkin. Shu nuqtai nazardan otlar quyidagi 2 guruhga bo'linadi:

A) **أسد** - ot, **فرس** - ot, **أسد** - arslon, **رأس** - oyoq, **رجل** - bosh.

B) Hosila otlar (**مشتق**), morfologik vositalar yordamida fe'l yoki boshqa otlardan (hosil) yasaladigan otlar. **مرحمة**

Ma'no jihatidan esa arab nahvchilari ularni 3 guruhga bo'ladilar.

A) **ظاهر اسم** - bu turkumga quyidagi ikki guruh otlardan boshqa barcha otlar kiradi.

B) "Nazarda tutiladigan, ma'nosi xufya bo'lgan ism" (**مضمرا اسم**) yoki (**ضمير**), ya'ni kishilik olmoshlari.

V) nomi noaniq, muayyan bo'lmagan ot (**مبهم اسم**), ya'ni ko'rsatish olmoshi (**الإشارة اسم**), nisbiy olmoshlar (**الاسم الموصول**), so'roq olmoshlari (**الاستفهام اسم**).

1) O'zbek tilida ot deb predmetning nomini bildirgan so'zlar turkumiga aytiladi. Ot kim? Nima? So'roqlariga javob bo'ladi.

2) Ot egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi, birlik va ko'plikda ishlatiladi.

3) Ot gapda bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, shuningdek, undalma bo'lib keladi, masalan: 1. **Onam** fabrikada ishlaydi. 2. Bugungi **ishni** ertaga qo'yma! 3. **Yoshlar** keksalarga yordam beringiz.

Birinchi gapda **onam** oti-ega, ikkinchi gapda **ishni** oti - to'ldiruvchi, uchinchi gapda **yoshlar** oti undalma bo'lib kelgan.

O'zbek tilida otlar quyidagicha tasniflanadi. Turdosh, atoqli ot, kichraytirish va erkalash otlari, buyum narsa nomi, o'rin-joy oti, mavhum ot, qo'shma ot, juft otlarga bo'linadi.

A Arab tilida esa otlar quyidagicha tasniflanadi. Atoqli va turdosh ot, bir marta ish-harakat nomi. 1 - **إسم المرة** (اسم المرة) 1marta zarba urish, **أخذة** bir marta olish, **وعدة** 1marta vada berish (1ta vada) **عدوة**, **فيلة مشية** - (النوع اسم) 1marta chopish harakat turini anglatuvchi nom yurish uslubi, **كثبة** yozish uslubi, 4 o'zakli va ko'p harfli o'zaklardan yasalgan ism-harakat turini anglatuvchi ot 1 marta ish-harakatni

bildiruvchi otga mos keladi. Masalan: **خراجة** uchish uslubi, **التفاته** muomala (murojat) qilish uslubi

U odobli (tarbiyali) odamdek murojaat qildi.

O'zbek tilida kichraytirish va erkalash otlari

Nutqimizda kichraytirish va erkalash otlari ham qo'llanadi.

Bunday otlar kichraytirish, ba'zan esa kichraytirish, ham erkalash ma'nolarini anglatadigan quyidagi qo'shimchalar bilan hosil qilinadi:

- **cha**: kitobcha, boycha, yulduzcha.

- **choq**, **-chak**, **-chiq**: qo'zichoq, kelinchak, qonchiq,

- **loq**: Bo'taloq, toyloq.

Arab tilida erkalash va kichraytirish otlari

kichraytirish va erkalash otlari; **إسم التصغير**

A) Uch harfli otlardan **فُعِلَّ** qolipida, ya'ni 2 chi undoshdan keyin **ay-ay** diftongi bilan yasaladi.

Masalan: **كَلْبٌ** - **كَلْبِيٌّ** , **رَجُلٌ** - **رَجُلِيٌّ**

B) Uzun unli yoki 2chi bo'g'inda diftong **ay** bo'lgan so'zlardan **فُعِلَّ** qolipida yasaladi. Masalan: **غَلَامٌ** - **غَلَامِيٌّ** yigitcha, **جَمِيلٌ** - **جَمِيلِيٌّ** chiroyli, **جُدُولٌ** - **جُدُولِيٌّ** buloq.

V) Birinchi undosh harfdan keyin **cho'ziq ā (لَ)** bo'lgan otlardan **فُوَيْعِلٌ** vaznida yasaladi. Masalan: **فَارِسْفُورِسٌ** - **فَارِسْفُورِيٌّ** chavandoz, **كَاتِبٌ** - **كَاتِبِيٌّ** xotim, **خُوَيْدَمٌ** - **خُوَيْدَمِيٌّ** yozuvchi.

G) Ikkilangan yoki illatli harfli o'zaklardan yasalgan otlardan kichraytirish otlari ikkilangan o'zaklar va illatli o'zak harflarning o'zgarishi qoidasiga muvofiq yasaladi: **يَابٌ** - **يَابِيٌّ** , **بَابٌ** - **بَابِيٌّ** ildiz, **إِبْنِيٌّ** - **إِبْنِيٌّ** (سُمِيٌّ) **سُمِيٌّ** - **سُمِيٌّ** , **إِسْمٌ** - **إِسْمِيٌّ** , **بُنْتُ** - **بُنْتِيٌّ** , **أَبِيٌّ** - **أَبِيٌّ** , **أَبٌ** - **أَبِيٌّ** , **عَصَى** - **عَصَا** .

D) to'rt harfli otlar tarkibida 2 chi undoshdan keyin **ay** diftongini qo'shib kichraytmaotlar yasaladi. **مَسْجِدٌ** - **مَسْجِدِيٌّ** masjid.

Ye) Agar 3chi undosh harfdan keyin **cho'ziq unli (u yoki o)** bo'lsa, bunday otlardan **فُعِيلِيٌّ** qolipida yasaladi. **عَصْفُورٌ** - **عَصْفُورِيٌّ** , **مُفَتِّحٌ** - **مُفَتِّحِيٌّ** , **عَصْفُورٌ** - **عَصْفُورِيٌّ** .

Yo) Beshinchi undosh bo'lgan so'zlardan quyidagicha kichraytirish otlari yasaladi. Bunda beshinchi undosh tushurib qoldiriladi.

عَنْدَلِيٌّ - **عَنْدَلِيٌّ** , **عَنْدَلِيٌّ** - **عَنْدَلِيٌّ** , **عَنْدَلِيٌّ** - **عَنْدَلِيٌّ** .

سَفَرَجَلٌ - **سَفَرَجَلِيٌّ** , **سَفَرَجَلٌ** - **سَفَرَجَلِيٌّ** .

J) **ay** bilan tugagan muannas ismlardan kichraytirish erkalash otlari yasalganda, bu muannasli qo'shimchalari saqlanadi.

- **حَمْرَاءٌ** , **بُشَيْرِيٌّ** - **بُشَيْرِيٌّ** , **بُشَيْرِيٌّ** - **بُشَيْرِيٌّ** .

Z) Ba'zi muannas qo'shimchasi bilan tugamagan muannas ismlardan kichraytirish va erkalash otlari yasalganda **ة** qo'shiladi.

- أرض، شَمْسٌ - شَمْسَةٌ - شَمْسَانِ

I) **ان** bilan tugagan ismlardan kichraytirish erkalatish otlari yasalganda bu qo'shimchalar saqlanib qoladi.

زَعِيْلَان - زَعْلَان، سَكْرَان - سَكْرَان

Ba'zi **ن** bilan tugagan ismlardagi **ن** undosh o'zak harf hisoblanadi. Va kichraytirish erkalatish otlari to'rt undoshli o'zaklardagi kabi yasaladi.

سَلِيْطُن - سَلْطَان

K) Kichraytirish va erkalash otlarining ko'plik va birlikda yasaladi.

مُسَيِّدَات - مُسَيِّد - مُسَيِّدٌ - مُسَاجِدٌ

مُسَيِّمُونَ - مُسَيِّمٌ - مُسَلِّمٌ - مُسَلِّمُونَ

L) Kichraytirish va erkalash otlarining ko'pligi ko'plikdan yasaladi: (Agar ko'plik

أَفْعَلٌ، أَفْعَلَةٌ، أَفْعَالٌ، أَفْعَالَةٌ، qoliplaridan yasalgan bo'lsa)

(بَيْتٌ) (birligi) - أَبْيَاتٌ (she'rlar) - أَبْيَاتٌ

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Arab tilida so'z turkumlari qanday tasniflanadi?
2. O'zbek tilida nechta so'z turkumi bor?
3. Arab tilida otlar yasalishiga ko'ra necha turga bo'linadi?
4. Arab nahvchilari otlarni ma'no jihatidan nechta guruhga bo'ladilar?
5. O'zbek tilida otlar qanday gap bo'laklari vazifasida kelishi mumkin?
6. O'zbek tilida otlar qanday tasniflanadi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Arab va o'zbek tillaridagi ish-harakat nomini qiyosiy sharhlab bering.

Asosiy adabiyotlar:

1. Sopostavitelnaya grammatika russkogo i uzbekskogo yazykov. A.A.Azizov. Toshkent 1983y.
2. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskom osveschenii. Grande B.M. M.:1998g.
3. G'.Abdurahmonov. O'zbek tili grammatikasi. T. 1996y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. K.Kuzmin. Uchebnik arabskogo yazqka. M. 2003g.
2. V.G.Lebedev, Yu.I.Malyarov. Uchebnik po recevoy praktika arabskogo yazqka. Osnovnoy kurs. Chast-2. M.1984g.
3. V.G.Lebedev. Arabskaya grammatika. M.1984g.
4. Muhammad Fatih. قواعد اللغة العربية. بغداد-1975م.
5. النحو الواضح. مصطفى أمين، علي جارم. بغداد 1998م.

MA'RUZA № 3

Mavzu: Arab va o'zbek tillari fonetikasining qiyosiy tahlili

Dars o'quv maqsadi: Arab va o'zbek tillari fonetikasi, o'xshash va farqli jihatlari haqida talabalarga qiyosiy tahliliy ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Unlilar, undoshlar, artikulyatsiya.
2. Tovushlar sistemasi.
3. Portlovchi shovqinlar, fonema.
4. Qisqa va cho'ziq unlilar.
5. Unlilar va undosh artikulyatsiyasi.

Asosiy savollar:

1. Arab va o'zbek tillarida tovushlar sistemasi. Undoshlar.
2. Arab va o'zbek tillarida portlovchi shovqinlar.
3. O'zbek tilidagi sirg'aluvchi undosh "S" va arab tilidagi til o'rtasida sirg'aluvchi "S:" o'rtasidagi tafovut.
4. O'zbek tilidagi qisqa va cho'ziq unlilar va ularning arab tilidagi muqobillari.
5. Arab va o'zbek tillarida talaffuzi bo'yicha (o'zbek) yaqin turuvchi xarflar.

Arab va o'zbek tillarida tovushlar sistemasi. Undoshlar.

Har bir til o'z nutq sistemasiga ega. Arab va o'zbek tillarida har ikki til uchun uyqash, bir xil talaffuz qilinadigan tovushlar bor. Ayni paytda har birining o'zigagina xos, boshqasida uchramaydigan tovushlar ham mavjud. Biz o'z ona tilimizda gapirganimizda tilimiz, labimiz va boshqa nutq a'zolarimizni biror tovushni talaffuz qilishimiz uchun qanday harakat qildirayotganimizni sezmaymiz ham. Talaffuz ko'nikmasi go'dakligimizdan hosil qilingan. Biroq o'zbekcha so'zlashish ko'nikmasi arab tilida gapirish uchun hamma vaqt ham

to'g'ri kelavermaydi. Arabcha to'g'ri so'zlashish uchun qtor yangi ko'nikmalar hosil qilish kerak.

Arab tilida undoshlar, asosan, tovush naychalarining harakat va holatiga yoki og'iz bo'shlig'ining qaysi qismida to'siqqa uchrashlariga, faqat shovqindangina iborat bo'lishlariga yoki aksincha, ovozning shovqindan ustunligiga, shuningdek, talaffuz qilinish usullariga bog'liq ravishda bir-biridan farqlanadi.

Arab undoshlari touch paychalarining harakat va holatiga ko'ra – jarangli va jarangsiz, paydo bo'lish o'rinlariga ko'ra – lab, tanglay oldi, tanglay (orqa) o'rtasi, chuqur tanglay orqasi va bo'g'iz tovushlari bo'lishi mumkin.

Undoshlar artikulyatsiya usuliga ko'ra portlovchi, sirg'aluvchi (frikativ), qorishiq (affrikativ), titrovchi (vibrant) va burun ishtrokida talaffuz qilinuvchi (sonant) bo'ladi. Umuman aytganda, arab undoshlariga xos eng xarakterli xususiyatlar – shovqinning mavjudligi, musiqaviylig, yumshoqlanish (katalizatsiya), va tovushning oshig'ich kuch bilan artikulyatsiya qilinishi (emfatiklik)dir.

Arab va o'zbek tilidagi portlovchi shovqinlilar.

Arab tilidagi portlovchi tovushlar ham xavoning nutq a'zolaridagi to'siqni yorib o'tib, portlash yo'li bilan chiqishi natijasida talaffuz qilinadi. Portlash yuqori va pastki lablar, til va tillar, til va tanglay o'rtalarida, xullas, nutq a'zolarining turli o'rinlarida sodir bo'lishi mumkin.

“ب” (b) fonemasi – lab o'rtasi undoshi, jarangli. Bu tovush o'zbek tilidagi “b”ning nusxasi. Biroq arab “b”si o'zbek tilidagidek, so'z o'rtasi yoki oxirida jarangsizlanmaydi, ya'ni “p”lashmaydi.

“ت” (t) fonemasi – tanglay oldi tovushi, til ortida talaffuz qilinadi, jarangsiz. O'zbek tilidagi “t”ning nusxasi (ekvivalenti).

د “d” fonemasi –tanglay oldi tovushi, tish ortida talaffuz qilinadi, jarangli. U jarangsizlar ta'siri ostida o'z jarangini yo'kotmaydi. Binobarin, uning o'zbek tilidagi kabi “t”lashuvi ro'y bermaydi.

ك “k” fonemasi – tanglay o'rtasi undoshi, jarangsiz. Arab “k”si rus tilidagidek chuqur emas. Shuningdek, u o'rniga qarab ba'zan yumshoq, ba'zan esa qattiq talaffuz qilinmaydi ham. Balki u doimo bir xil – xuddi o'zbek tilidagidek, bir oz yumshoqroq artikulyatsiya oladi.

ق “Q” fonemasi – chuqur tanglay orqasi undoshi, jarangsiz. Til o'zaginging ishtiroki bilan talaffuz qilinadi. U o'zbek “q” fonemasiga to'la mosdir.

O'zbek tilidagi sirg'aluvchi undosh “s” va arab tilidagi tish o'rtasi sirg'aluvchisi “s:” ث o'rtasidagi tafovutlar.

Ma'lumki o'zbek tilidagi “S” fonemasi – shovqinli jarangsiz undosh. U til oldida talaffuz qilinuvchi tanglay oldi sirg'aluvchi, jarangsiz shovqinli. U ustki va ostki tishlar o'rtasida talaffuz qilinadi. Bunday tovush hozirgi zamon o'zbek tilida yo'q. Uning artikulyatsiyasida til uchini tishlar orasiga shunday joylashtirish kerakki, u yuqoridagi tishlarga mahkam jipslashib tursin. Shunda til uchi bilan pastki tishlar orasida kichik tirqish qoladi. Nutq a'zolarining shunday holatida “S:” ث kuch bilan talaffuz qilinadi. Masalan: ثَبَيْتْ، ثَابَتْ

O'zbek tilidagi qisqa cho'ziq unlilar va ularning arab tilidagi muqobillari.

O'zbek tilidagi a, i, u fonemalari arab tilidagi qisqa unlilar a َ, i ِ, u ُ fonemalariga o'xshashdir. Cho'ziq fonemalar esa qisqalariga sifat jihatdan mos keladi. Ulardan artikulyatsiyani ko'proq cho'zish bilan farq qiladi.

Arab tilida undoshlar unli tovushlarning talaffuziga ta'sir qiladi. Shuning uchun unli fonemalar undoshlarining xususiyatlariga qarab yoki o'zgarishsiz, ya'ni fonema sifatida, yoki vaziyatga qarab fonemaning varianti sifatida talaffuz qilinadi.

Artikulyatsion jihatdan unli tovushlarning hosil bo'lishida o'pkadan chiqib kelayotgan havo oqimi og'iz bo'shlig'ida g'ech qanday to'siqqa uchramaydi. Akustik havo oqimi kuchsiz tebranadi. Unlilar musiqa ohangiga jo'r bo'la oluvchi mayin ohangga egadir.

Arab tilida 6ta unli fonema bor bo'lib, ularning uchasi qisqa: (a, i, u) va uchasi cho'ziq (ā, ī, ū) unlilaridir.

O'zbek tilidagi yo va ya unlilarini arab tilidagi quyidagi uzun va qisqa unlilar yordamida ifodalash mumkin. Masalan: يَا أَيُّهَا النَّاسُ

Bularning arab tilidagi muqobillari اِيْ يَوْدَامِيدَا تَاهْمِينِيْ يَاقِينْلَاشْتِيرِيلْغان tarzdagina erilishi mumkin.

Arab va o'zbek tillaridagi talaffuzi bo'yicha yaqin turuvchi tovushlar.

Biz yuqorida arab tilidagi bir necha o'zbek tilidagi muqobillarga yaqin turuvchi tovushlarni misol qilib keltirdik. Bunday tovush arab tilida talaygina o'zbek tilida bo'lmagan tovushlar bular quyidagilardir.

1. Til o'rta sirg'aluvchilar : ث ,
2. Emfatik tovushlar : ط , ص , ض ,
3. Bo'g'iz tovushlari : ع , ح , (hamza)

Bulardan boshqa tovushlarning barchasi o'zbek tilidagi muqobillarga artikulyatsiyasi nuqtai nazaridan yaqin turadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Arab va o'zbek tillarida tovushlar sistemasi qanday tarkib topgan?
2. Arab va o'zbek tillarida portlovchi shovqinlar qanday tasniflanadi?
3. o'zbek va arab tillarida nechta fonema talaffuzi jihatidan o'xshash va nechta bir-biridan farq qiladi?
4. O'zbek va arab tillaridagi qisqa va cho'ziq unlilarning o'xshash va tafovutli jihatlari qanday?
5. Unlilar artikulyatsiya jihatidan qanday hosil qilinadi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Faqatgina arab tiliga xos bo'lgan, o'zbek va boshqa tillarda uchramaydigan tovushlar, ularning maxrajlari, hosil bo'lish o'rinlari haqida batafsil ma'lumot bering.

Asosiy adabiyotlar:

1. B.M.Grande. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osvechenii. M-1998g.
2. N.Ibrohimov, M.Yusupov. Arab tili grammatikasi. T-1997y.
3. S.Rustamov "Arab tili fonetikasi". T.2000y.
4. E.Talabov "Arab tili" T.1993y.
5. B.Z.Xolidov "Uchebnik arabskogo yazika" T.1981 y.
6. G.Sh.Shabatov "Uchebnik arabskogo yazika" M.1998 g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. K.Kuzmin. Uchebnik arabskogo yazika. M. 2003g.
2. G. Abdurahmonov, Sh.Shukurov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T. 1973y.
3. النحو الواضح. مصطفى أمين، علي جارم. بغداد 1998م.

4. Az-Zamaxshariy. Al-Unmuzaj fin-nahv.
MA'RUZA № 4

Mavzu: Arab va o'zbek tillarida fe'llarning qiyosiy tasnifi

Dars o'quv maqsadi: Arab va o'zbek tillaridagi fe'llarning morfologik xususiyatlari, ularning grammatik vazifalari, ular o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni qiyosiy tahlil qilish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Solim fe'l va illatli fe'l.
2. Solimsifat fe'l, boshlanish va yaqinlikni anglatuvchi fe'llar (الأفعال المقاربة والشروع)

Asosiy savollar:

1. Arab va o'zbek tillarida fe'llarning yasalishi. Fe'llarning noaniq shakli.
2. Arab va o'zbek tillarida ish-xarakat nomi.
3. Arab va o'zbek tillarida fe'llarning tasnifi.
4. O'zbek va arab tillarida fe'l mayllari.
5. O'zbek va arab tilidagi fe'llarning bir-biridan farqlari va o'xshash jihatlari.

Arab va o'zbek tillarida fe'llarning yasalishi. Fe'llarning noaniq shakli

Fe'l – predmetning harakat va holatini ifodalaydigan so'z turkumi.

Fe'l o'zbek tilida ikki xil – morfologik (affikslar yordamida) va sintaktik (so'zlarni birlashtirish bilan) usul bilan yasaladi.

Fe'lning zamonlari, funksional formalari, mayllari, nisbatlari kabilarning hammasi uning buyruq formasi o'zidan hosil qilinadi.

Fe'l gap tuzishda uyushtiruvchilik xususiyatiga ega bo'lib, ko'pincha boshqa so'zlari o'ziga ergashtirib keladi. Otlar asosan, fe'llarda ifodalangan ma'no talabiga qarab kelishiklar bo'yicha turlanadi. Masalan: Bahor keldi, Men ishdan kelyapman.

Gap bo'laklaridan hol va to'ldiruvchi, asosan fe'lga bog'lanadi.

Fe'lning morfologik belgilardan biri u tuslanadi. Bunda leksik o'zgarish yuz bermaydi, faqat shaxsg'son, zamon singari ma'nolarini aniqlaydi, kesimlik (predikativlik)ni ko'rsatadi.

Fe'lning asosiy funksiyasi kesimlik bo'lib, gapda ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida ham kelishi mumkin.

O'zbek va arab tilidagi fe'llar o'timli-o'timsizlik, bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, nisbat kabi grammatik kategoriyalarga ega.

Arab tilida ish-harakat yoki holatni bildiruvchi bu so'z turkumi arab grammatikasida juda katta o'rin tutadi, chunki juda ko'p boshqa turkum so'zlari ham asosan fe'l o'zaklari zaminida yasaladi.

Fe'llar uch o'zak undoshli va to'rt o'zak undoshlilarga bo'linadi va ularning ko'pchiligini uch o'zak undoshli fe'llar tashkil etadi.

Bu o'zak undoshlar atrofida unilarni o'zgartirish, u yoki bu o'zak undoshni ikkilantirish, biror noo'zak undoshni kiritish yo'li bilan fe'llarning xosila shakllari yasaladi. Hosila shakldagi fe'llarning, tabiiyki, mazmunida ham o'zgarish sodir bo'ladi. Hosila shakllarni boblar deb atash qabul qilingan. Uch o'zak undoshli fe'llarning 15ta, 4 o'zak undoshli fe'llarning 4ta bobi mavjud.

Bu boblarni o'zaro farqlash uchun nom qo'yilgan. Arab tadqiqotchilari uch o'zak undoshli fe'lning boshlang'ich shaklini فعل ثلاثي مجرد, 4 o'zak undoshli fe'lning boshlang'ich shaklini esa shu bobning harakat nomi (masdari) atamasi bilan ataganlar. Masalan: باب الإفتعال, با

باب التفعيل va hokazo.

Arab tilida ham barcha fe'l boblari o'tgan va hozirgi-kelasi zamonga ega. Ular shaxsda, sonda, jinsda tuslanadi. Fe'llar arab tilida aniq va majhul nisbatga ega. Arab tilida 5 ta fe'l mayli bor.

O'zbek tilida fe'lning noaniq shakli oxiri-moq qo'shimchasi bilan tugasa, arab tilida fe'lning infinitiv shakli vazifasini fe'l boblarining 3-shaxs muzakkar shakli o'ynaydi.

Arab va o'zbek tillarida ish-harakat nomi

O'zbek tilida ish-harakat nomi fe'lning asosiy o'zagiga (-moq qo'shimchasining o'rniga) -ish(-sh) qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi. Masalan: ketmoq - ketish, o'qimoq - o'qish va h.k.z.

Arab tilida ish-harakat nomi fe'l turiga va fe'lning boblariga qarab turli qoliplarda yasaladi.

Birinchi bob fe'lining masdari 40ga yaqin qoliplar yordamida yasaladi.

3-o'zakli fe'lning II-X bob fe'llarining masdarlari quyidagicha yasaladi:

II - تفعلة، تفعيل

III - مفاعلة، فعال

IV - إفعال

V - تفعّل

VI - تفاعّل

VII - إنفعال

VIII - إفتعال

IX - إفعلاّل

X - إستفعال

O'zbek va arab tillarida fe'llarning tasnifi

O'zbek tilida fe'llar quyidagicha tasniflanadi.

1. ot, sifat va boshqa so'z turkumlaridan -la fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shib yasaladi. Shivor-la-moq.

-a fe'l yasovchi qo'shib - osh-a oshamoq.

-y(-oy) fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shib: Masalan: qora-y - qoraymoq, kuch-ay - kuchaymoq.

-sira, -sa fe'l yasovchi qo'shimchalari otlarga qo'shib, bunda ot anglatgan predmetni shtat ma'nosini bildiruvchi fe'llar yasaydi: suv-sira-moq, uyqu-sira-moq.

-illa (chirillamoq);

-lan, -lash (faxlandi, yordamlash-moq).

-ira (yarqiradi, yaltiramoq va h.k.z.)

2. Qo'shma fe'llar:

1) Fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'lning birikishidan yasaladi: dam olmoq, himoya qilmoq, yordam berdi - yordamlashdi.

2) Ikki fe'lning birikishidan yasaladi: sotib olmoq, chiqarib olmoq. Qo'shma fe'llar ajratib yoziladi.

Arab tilida esa fe'llar quyidagicha tasniflanadi. Arab tilidagi fe'llar fe'l o'zklarining tarkibi, bajaradigan vazifasiga qarab tasniflanadi.

Umumiy tarzda arab fe'llari tuzilishi tarkibiga qarab quyidagicha tasniflanadi.

1) To'g'ri fe'llar سالمة أفعال;

2) Noto'g'ri fe'llar الأفعال المتعلقة;

3) To'g'riga o'xshash fe'llar أفعال مثالية;

4) Bo'sh fe'llar أفعال جوفاء;

5) Illatli fe'llar أفعال ناقصة

6) Hamzali fe'llar مهموزة أفعال

7) Ikkilangan fe'llar أفعال مضاعفة

Fe'llar o'zining bajaradigan vazifasiga ko'ra quyidagicha tasniflanadi.

Masalan, tasnifi bo'yicha جعل fe'li سالمۈأفعال ga ham kiradi. Biroq جعل fe'lining tasnifini التحويل أفعال tasnifida ko'rib chiqishlik ham amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi.

Yoki bo'lmasا تركا رء، صير، تخذ، fe'llari ham mana shu fe'l guruhiga kiradi. Agar biz ularni tuzilishiga ko'ra tasniflasak. Aslida ularning har biri yuqorida zikr etilgan alohida guruhdagi fe'llar, ya'ni أفعال جوفاء va مهموزةأفعال، سالمۈأفعالga kiritilishi mumkin.

O'zbek va arab tillarida fe'l mayllari

Fe'lda so'zlovchining ish-harakatiga munosabatining ifodalanishi fe'l mayli deyiladi. Fe'l mayllari ish-harakat haqida xabar (moillik), buyruq-istak, shart ma'nolarini anglatadi. Shu jihatdan o'zbek tilida fe'llarning 3ta mayli bo'ladi: xabar mayli, buyruq-istak mayli, shart mayli.

Arab fe'llari o'zbek tilidagi fe'llardan farqli o'laroq 5ta maylga ega. Bular aniqlik, istak, shart, kuchaytirma va buyruq mayllari. Aniqlik mayli fe'lining tegishli zamon shakllari bilan ifodalanadi.

Buyruq mayli. Hozirgi kelasi zamon shaklidan yasaliib, 1chi bob fe'llarida o'rta o'zak harakatiga qarab dammalik alif(1 ١٠٠(2u) 3) va kasralik alif (1 (2i) 3) fe'ldagi pristavkalar o'rniga qo'yilib oxirgi xarakat sukunlanadi.

Istak mayli ham aniqlik (xabar) maylidan yasaladi. Bunda u damma, a fatha bilan almashadi. Cho'ziq unidan keyin kelayotgan nunlar tushib qoladi.

Shart maylida fe'l oxiri sukunlanadi. 2-3 shaxs muannas ko'plikdagi nunlardan boshqa nunlar tushib qoladi.

O'zbek va arab tilidagi fe'llarning bir-biriga o'xshash va farqli jihatlari

Avvalambor o'zbek tilidagi fe'l arab tilidagi fe'lga bajaradigan vazifasi nuqtai nazaridan o'xshaydi.

Arab tilida ham o'zbek tilida ham fe'llar shaxs, zamon, sonda o'zgaradi. Fe'llarning o'tgan va hozirgi zamon shakllari mavjud.

O'zbek tilida fe'llar tuslanayotganda shaxs zamon qo'shimchalari faqat fe'ldan keyin qo'shiladi. Arab tilida esa prefiks va shaxs, son qo'shimchalari bilan hozirgi zamon ifodalanadi.

O'zbek tilida 3ta mayl bo'lsa, arab tilida 5ta fe'l mayli bor.

Ikkala tilda ham o'timli va o'timsiz fe'llar mavjud. O'zbek tilida fe'l ikki xil – morfologik va sintaktik usulda yasaladi, arab tilida faqat morfologik usulda yasaladi.

Nazorat savollari va topshiriqlari:

1. Arab tilida fe'llar qanday tasniflanadi?
2. Fe'llar bajaradigan vazifasiga ko'ra qanday tasniflanadi? O'zbek tili bilan qiyoslang.
3. Arab va o'zbek tilidagi fe'llarning o'xshash va farqli jihatlari nimadan iborat?
4. Arab va o'zbek tillarida fe'l mayllari qanday ifodalanadi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Arab va o'zbek tilida fe'l yasaliishi va tuslanishida qanday mushtaraklik bor?
2. الأفعال المقارنة والشروع guruhidagi fe'llarning muqobillari o'zbek tilida qanday ifodalanadi?

Asosiy adabiyotlar:

1. B. Grande . Kurs arabskoy gramatiki v sravnitelno – istoricheskoy osveshenii. M. 1998g.
2. N.Ibragimov, M.Yusupov "Arab tili grammatikasi" T.1997y.
3. E.N.Mishkurov. Morfologicheskiy stroy sovremennogo arabskogo yazika. T.1992g.
4. G.Sh.Sharbatov. Sovremenniy arabskiy yazik. M.-1982g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Arab tili darsligi (tarkib qoidalari) "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. T.2009y.
2. O.Musaev. Arab tili asosiy qoidalar tizimi. T.-2000y.
3. Sunnatulloh Bekpo'lat. Arab nahvi. T.-2007y.
4. Muhammad Fatih. قواعد اللغة العربية. بغداد-1975م.

MA'RUZA №5

Mavzu: O'zbek va arab tillarida sifat va uning turlari

Dars o'quv maqsadi: Arab va o'zbek tillarida sifat turkumi, uning morfologik yasaliish usullari haqida qiyosiy-tahliliy ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Sifat turlari. Ularning o'zbek va arab tillaridagi muqobillari.
2. Ozaytirma sifat, qiyosiy, orttirma darajadagi sifatlar.
3. Sifatlar va moslashuv.

Asosiy savollar:

1. So'z turkumlaridan sifatning tarifi;
2. Arab va O'zbek tillarida sifat va uning mano jihatdan turlari va ulardagi tafovutlar:

- a) Sifat darajalari;
- b) Ozaytirma sifatlar;
- v) Kuchaytirma sifatlar;
- g) Sifat yasovchi qo'shimchalar;
- d) Arab tilidagi sifatlarning yasalishi va xususiyatlari;

Malumki, o'zbek tilida ham arab tilidagi kabi sifatlar ikki xil bo'ladi, yani asliy sifatlar va nisbiy sifatlar.

Malumki sifat – bu belgini bildiradigon so'zlar turkumidir. Sifat qanday? qanaqa? kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

-Sifat odatda, belgining darajasini ham ko'rsatadi, masalan: sho'x-sho'xroq bola, eng sho'x bola.

- Sifat odatda otga, bazan felga bog'lanadi, masalan: 1. Yoqimli shamol esa boshladi. 2. Adham chiroyli yozadi.

Birinchi gapdagi sifat otga (yoqimli shamol), ikkinchi gapdagi sifat esa felga (chiroyli yozadi) bog'langan.

Sifat gapda ko'pincha aniqlovchi, kesim, bazan hol bo'lib keladi, masalan:

1. Odobli bola – elga manzur. 2. Chiroyli va xatosiz yoz! 3. Osmon ko'm-ko'k.

Birinchi gapdagi odobli sifati aniqlovchi, ikkinchi gapdagi chiroyli, xatosiz sifatlari hol, uchinchi gapdagi ko'm-ko'k sifati kesim bo'lib kelgan.

Yuqoridagilarni arab tili nuqtai nazaridan talqin qiladigan bo'lsak, ular ko'p jihatdan bir – biriga mos keladi.

O'zbek tilida ozaytirma sifatlar mavjud bo'lib ular o'zakdan anglashilgan rangning, belgining ozligini, kamligini bildiradi.

Ozaytirma sifatlar quyidagi qo'shimchalar bilan hosil bo'ladi.

1) -ish, -imtir (mtir). Bu qo'shimchalardan -ish, -imtir undosh tovush bilan bitgan oq, ko'k kabi so'zlarga, -mtir esa faqat qora sifatga qo'shiladi: oqish ipak, ko'kish ro'mol, oqimtir parda, ko'kimtir suv, qoramtir satin.

2) Rangni bildiruvchi sifatdan oldin och, nim so'zlarini keltirish bilan; nim so'zi bilan hosil qilingan ozaytirma sifatlar qo'shib yoziladi: och qizil lenta, nim-pushti ro'mol.

3) -gina (-kina, -qina). Bu qo'shimchalar o'zakdan anglashilgan belgining kuchsizligini, ozligini bildiradi, k, g bilan bitgan so'zlarga – kina, q, g' bilan bitgan so'zlarga –qina, boshqa hollarda –gina qo'shimchasi qo'shiladi; kichkinagina hovli, yumshoqqina non, ixchamgina palto. Arab tilida ozaytirma sifatlar الضارب so'zi (-ga moil) yordamida yasaladi. Masalan: qizg'ish, qizg'imtir- الضارب الى الحمة

Oqroq, oqish- الضارب الى الزرقاء, الضارب الى البياض

-Kuchaytirma sifatlar rangni anglatadigan sifatlardan quyidagicha hosil qilinadi:

1) Sifatlarning bosh qismi p va m tovushlaridan biri (mos kelgan) bilan birgalikda takrorlanadi. Bunday sifatlar chiziqli bilan yoziladi: qip-qizil olma, sariq - sap-sariq behi, yashil- yam-yashil o'tloq, ko'k-ko'm-ko'k osmon, katta-kap-katta bola.

Oppoq kuchaytirma sifati qo'shib yoziladi: Katta oppoq dasturxon hamma yoqni qoplagan.

2) Sifatlarning birinchi bo'g'ini keyingi bo'g'inning birinchi undosh tovush bilan birga takrorlanadi. Bunday sifatlar chiziqli bilan yoziladi: Butun-but-butun ko'ylak, dumaloq- dum-dumaloq tosh, yapaloq- yap-yapaloq tosh.

3) Sifatdan oldin to'q, tim, jiqqa, g'irt kabi so'zlarni keltirish bilan. Bunday kuchaytirma sifatlar ajratib yoziladi: jiqqa ho'l o'tin, tim qora kostyum va boshqalar.

Arab tilida kuchaytirma sifat orttirma darajadagi sifatlar kabi yasaladi

Endi o'zbek tilidagi qiyosiy va orttirma darajalarga to'xtaladigan bo'lsak, orttirma daraja eng so'zini sifat oldiga qo'yish orqali yasaladi. Qiyosiy daraja –sifatga-roq qo'shish bilan yasaladi.

Arab tilida orttirma daraja , (أفعل التفضيل , أو أفعال التفضيل) deb ataladi. Ular muz -أفعل- muan. -فعلى qolipida yasaladi. اليل- ليل. أجلي حلو، أقوى- أقوى، أجرد- جيد

Arab tilida qiyosiy daraja أفعل من qolipida yasaladi. زيد أكبر من عمر.

Agar orttirma darajadagi sifat shaxsni bildirsa u aniqlik artikli bilan yoziladi. هما الفضليان , هما الأفاضل , هي الفضلى , هو الأفضل.

Kesim vazifasida kelsa odatdagidek noaniq holatda bo'ladi. الإله أكبر.

Orttirma daraja yasalishi mumkin bo'lmagan otlar masalan to'rt o'zakli otlar yoki rang hamda jismoniy kamchiliklarni anglatadigan kabi so'zlar yordamida أكث, أشد, أقل, أحسن sifatlardan yordamchi so'zlar orttirma daraja yasalishi kerak bo'lgan o'zakdan yasalishi ish- harakat nomini- masdar yoki abstrak otlar oldiga qo'yib yasaladi. yaxshiroq tarbiyalovchi, أكثر ديمقراطية

O'zbek tilida arab tilidan farqli o'laroq otdan sifat yasovchi qo'shimchalar yordamida ham sifatlar yasaladi.

Masalan:

-li. O'zakdan anglashilgan manoga ega ekanlikni, predmetning biror ish harakat uchun yaroqli, unga mos ekanini bildiradi. Rasmiy kitob, kuchli shamol.

-siz. O'zakdan anglashilgan predmetning yo'qligini bildiradi: tutunsiz olov, tuzsiz ovqat.

-iy, -viy. O'zakdan anglashilgan predmetga xoslikni bildiradi. O'zak unli tovush bilan bitsa -viy, undosh tovush bilan bitsa -ay qo'shiladi; tarbiyaviy soat, devoriy gazeta, ilmiy xodim.

Aslida -iy, -viy qo'shimchalari arab tilidagi nisbiy otlar -ى, -ى, qo'shimchalari yordamida yasaladi.

-chi, -ki, -qi. Predmetning vaqt yoki o'ringa xosligini bildiradi. Unli va jarangli undosh tovush bilan bitgan o'zaklarga -ki yoki -qi qo'shiladi: bahorgi ishlar, qishki kanikul.

-chan. Biror xususiyatda ortiqlikni bildiradi: ishchan bola, harakatchan yoshlar.

-ser. O'zakdan anglashilgan manoni orttirib ko'rsatadi: ser hosil olma, ser-suv shaftoli, serunum tuproq.

-ba o'zakdan anglashilgan manoga egalikni bildiradi. Bu qo'shimcha bilan yasalgan sifatning manosi ko'p vaqt -li qo'shimchasi bilan hosil bo'lgan sifatning manosiga mos keladi: baquvvat - quvvatli, badavlat-davlatli.

-be- o'zakdan anglashilgan manoga ega emaslikni bildiradi. Bu qo'shimcha bilan yasalgan sifatning manosi -siz qo'shimchasi bilan hosil bo'lgan sifatning manosiga mos keladi. Beg'ubor-g'uborsiz, bexabar- xabarsiz.

-simon. O'zakdan anglashilgan manoga o'xshashlikni bildiradi. -simon qo'shimchasidagi i unlisi jonli tilda u tarzida aytilsa ham, hamma vaqt - simon shaklida yoziladi: odamsimon, tuxumsimon shakl.

Arab tilida bundan sifat على الشكل birikmasi yordamida ifodalanadi. على شكل البيض

-ik. O'zakdan anglashilgan manoga ega ekanligini bildiradi: kapitalistik davlatlar. Bu toifadagi sifatlar ham arab tilida -ى الأول الرأسالية. Masala qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi:

Feldan sifat yasovchi qo'shimchalar yordamida sifatlarning yasalishi.

-choq, -chak. Ish harakat, holat va xususiyatda ortiqlikni bildiradi: maqtanchaq quyoncha, tortinchak bola, kuyunchak odam.

-gir, -kir, -qir, -qur. Harakat yoki holatda ortiqlikni bildiradi: sezgir pioner, topqir bola, uchqur ot, keskir pichoq.

-ma. Ish- harakat natijasida hosil bo'lgan belgi xususiyatni bildiradi: qaynatma sho'rva,

Burma ko'ylak.

-q, -qi, -iq. Biror xususiyatiga egalikni, shunga hoslikni bildiradi: iliq suv, siniq idish, -q, -qi, qo'shimchalari a unlisi o unlisiga aylanadi va o yoziladi: tarqa- tarqoq, qayna- qaynoq, yig'la- yig'loq, sayra-sayroqi.

-oq, -qoch - qochiq, qo'rq- qo'rqqoq, baqir- baqiroq..

So'zlarni qo'shib sifat yasash

So'zlarni qo'shishdan quyidagi sifatlar yasaladi.

1. Qo'shma sifatlar : mehnat sevar bola;
2. Juft sifatlar: baland-past tepaliklar.

Qo'shma sifatlarning yasalishi va yozilishi

Qo'shma sifatlar quyidagicha yasaladi.

1. Ot va otdan. Bunday qo'shma sifatlar ajratib yoziladi. Masalan : havo - rang bo'yoq, binafsha rang ipak.

Bunday sifat arab tilida malum qolip yoki so'z bilan ifodalanadi.

2. Sifat va otdan. Bunday qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi, masalan: qimmat baho sovg'a.

Arab tilida bir so'z yoki lavziy izofa shaklida ifodalanadi, على الثمن, نفيبي, ثمين, ياني;

3. Ot yoki ravishga -ar qo'shimchali felni qo'shish bilan yasaladi. Bunday qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi. Masalan:

Tinchliksevar xalqlar, tezoqar daryo, mehnatsevar;

دوب, محب للعمل, مجتهد: كروز

Son boshqa soʻz turkumlaridan yasalmaydi. Sonlar koʻpincha raqam bilan yoziladi.

Yuqoridagi sonning talqini arab tilidagi songa ham bevosita taalluqlidir. Arab tilida son oʻzining gramatik mohiyatiga koʻra ot, sifat yoki ravish boʻlishi mumkin.

Sanoq sonlar sanalmish bogʻlanganda 1-2 sonlari sanalmish bilan jinsda toʻliq moslashadi. Oʻzbek tilida esa son ot bilan kulganda u bilan birikadi.

Oʻzbek tilida sonlar mano va grammatik jihatdan olti hil boʻladi: 1. Miqdor son. 2. Dona son. 3. Tartib son. 4. Iama son. 5. Jamlovchi son. 6. Taqsim son.

Miqdor sonlar kun, oy, yil, kecha, kunduz, soat, nafar, nusxa, tun, bet(saxifa), millimetr, santimetr, minut, sekund, kilometr, qadam, qarich, enli, gram, tonna, litr, stakan, piyola, soʻm, marta kabi soʻzlar bilan ishlatiladi.

Arab tilida esa kun, oy, yil, soat kabilar tartib son bilan ifodalanadi. Yillar sanoq son bilan ham ifodalanishi mumkin.

Masalan:

الاول من شهر تموز

العشرون من شهر رجب

خمسة ألف وتسعمائة و سبع وتسعين. 1997-

(في) المنة الصابعة والثمانون بعد حمسمئة -587

Sanoq sonlar arab tilida 3-10 sonlar va sanalmishlar bilan izofa birikmasini tashkil etadi. Masalan: ثلاثة من الطلاب, طلاب ثلاثة, ثلاثة طلاب.

Oʻzbek tilida bosh kelishikda son va sanalmish bir xil holatda boʻladi. Arab tilida esa 3 dan 10gacha boʻlgan sonlardan keyingi ot izofa koʻplik va qaratqich kelishikda qoʻyiladi. Muqoyasi uchun oʻzbek tilidagi quyidagi misolni keltirishimiz mumkin.

Olimlar bir yil 365 kecha – kunduz, 5 soat, 48minut, 46 sekunddan iborat ekanligini aniqlaganlar.

Tartib sonlarning arab va oʻzbek tillaridagi ifodasi:

Tartib son predmetning sanoqdagi tartibini bildiradi. Tartib son unli tovush bilan bitta miqdor songa –inchi qoʻshimchasini qoʻshish bilan hosil qilinadi.

Arab tilida esa tartib sonlar (2dan 10gacha) فاعل-فاعل qolipida yasaladi. Ichi raqami boshqa oʻzakdan yasaliy muzakkar va muannasda boshqa koʻrinishga ega boʻladi. Masalan: اول- اولي.

Oltinchi raqami ham xuddi shunday boshqa oʻzakdan yasaliy, uning yozuvdagi ifodasi quyidagichadir. (سادسة) سادس.

11 dan 99 gacha boʻlgan sonlarda birlik فاعل qolipida, 11-19 gacha boʻlgan sonlarda ال artikli bilan tushum kelishigida, oʻnlik noaniq holda va tushum kelishigida keladi.

Ular tartib bildirayotgan soʻz bilan jinsda toʻgʻri moslashadi. "Birinci" soʻzi oʻrnida bunday sonlarda حاد (الحادي), muannasda, حادية (الحادية) soʻzi ishlatiladi.

الدرس الحادي عشر.

20 dan yuqori yaxlit sonlar sanoq sonlardan farq qilmaydi. Faqat ular otdan keyin aniq holatda keladi. Masalan: الليلة الاثنتين, الغرفة العشرون. 2minginchi kecha

21-99 gacha yaxlit boʻlmagan tartib sonlarning avval birlar xonasi tartibi bildirilayotgan soʻz bilan jinsda moslashgan holda, و bogʻlovchisidan keyin oʻnlar xonasi (har ikkovi ham tartib son shaklida) keladi va ular ot bilan kelishikda moslashadi. Masalan: الدس -53- الدس الثالث والخمسون.

100dan (ortiq) yuqori tartib sonlarda ham shu uslub saqlanadi va bunda yuzlik xona oldin keladi. Masalan: الليلة الرابعة و السبعون بعد الثلاثئة -374 kecha.

Gapdagi grammatik vazifasiga qarab ikki tilda ham son deyarli bir xil vazifani bajaradi. B iroq arab tilida tartib son moslashgan aniqlovchi kabi xususiyatga ega boʻlganligi uchun u gapda moslashgan aniqlovchi vazifasini bajarib keladi. Yani, arab tilida son mohiyatiga (grammatik)koʻra ot, aniqlovchi (sifat) va ravish boʻlib kelishi mumkin. Shundan kelib chiqib ular jumlada tegishli gap boʻlaklarini ifoda etadilar.

Oʻzbek va arab tilida sonning oʻziga xos xususiyatlari.

Arab tilida son fel oʻzaklaridan yasaladi, yani (اثنان, اثنان) Arab tilida son fel oʻzaklaridan yasaladi, yani (واحد, واحد) و h.z.

Oʻzbek tilida esa sonlar mustaqil soʻzlardan tarkib topgandir. Ularning feliy oʻzaklari mavjud emas.

Arab tilida son sanalmish murakkab grammatik aloqani tashkil etadi.

Oʻzbek tilida esa son, sanalmish bilan bitishuv aloqasiga kiradi.

Xulosa qilib aytganda son arab va oʻzbek tillaridagi eng muhim morfologik ategoriyalar jumlasiga kiradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Son deb nimaga aytiladi ?
2. Sanoq sonlar arab tilida qanday ifodalanadi?
3. Arab tilida sonlar qanday o'zakdan yasaladi?
4. Sonlar o'zbek va arab tillarida qanday grammatik vazifalarni bajaradi?

5. Arab va o'zbek tillarida tartib son qanday yasaladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Sanalar, hafta kunlari va oylarni ifodalashdagi sonlarni vazifasini sharhlang.

2. Sanoq sonlarda izofaning qaysi turi ifodalanadi?

Asosiy adabiyotlar:

1. B. Grande. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno istoricheskoy osveshenii. M. 1998y.
2. N. Ibragimov, M. Yusupov "Arab tili grammatikasi". T. 1997y.
3. A. G'ulomova, Y. Abdullaev "O'zbek tili darsligi". 5-6 sinf. T. "O'qituvchi". 1985y.
4. A. Azizov "Sopostavitelnaya grammatika russkogo i uzbekskogo yazikov". T. "O'qituvchi". 1988g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. G. Sh. Sharbatov. Sovremenniy arabskiy yazik. M-1984g.
 2. Az-Zamaxshariy. Al-Unmuzaj fin-nahv.
 3. توضيح النحو. شرح ابن عقيل. د. عبد العزيز محمد فاخر. القاهرة-1995م
 4. Sunnatulloh Bekpo'lat. Arab nahvi. T.-2007y.
- G'. Abdurahmonov, Sh. Shukurov. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. T. 1973y.

MA'RUZA № 7

Mavzu: O'zbek va arab tilida olmoshlar va ularning qiyosiy tasnifi

Dars o'quv maqsadi: Arab va o'zbek tillarida olmoshlarning turlari, ularning gapdagi vazifasi haqida qiyosiy tahliliy ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Olmoshlar – ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi.
2. Olmoshlar – ot, sifat, son.

3. Belgilash, gumon, bo'lishsizlik olmoshlari.
4. Mening, meni, meniki, sening, seni, seniki.
5. o'zlik olmoshlari - نفس , birikma olmoshlari.
6. O'zim, o'zinning, o'z.

Asosiy savollar:

1. O'zbek tilida olmoshlarining turlari.
2. Arab tilida olmoshlarning turlari.
3. Olmoshlarning jumladagi grammatik vazifalari.

Avvalambor olmosh-so'z turkumidir. Arab tilida esa u ism turkumiga kiradi. Darhaqiqat olmosh – ot, sifat, son o'rnida qo'llaniladigan so'zlar turkumidir. Olmoshlar o'zbek tilida turlanadi, gapda ko'pincha ega, to'ldiruvchi va aniqlovchi bo'lib keladi. Masalan: Majlisga hamma keldi. Direktor hammamizni tabrikladi. Sen qanday kitoblarni o'qiding?

O'zbek tilida hamma so'zi belgilash olmoshlari tarzida talqin etilsa, arab tilida bunday olmosh turi mavjud emas, u جميع o'zlarini orqali ifoda etiladi. Olmoshlar o'zbek tilida ma'nosiga ko'ra 7 turga bo'linadi: kishilik, o'zlik, ko'rsatish, so'roq, belgilash, bo'lishsizlik olmoshlari, gumon olmoshlari.

Kishilik olmoshlari.

Shaxsni bildiradigan olmoshlar kishilik olmoshlari deyiladi.

Kishilik olmoshlari quyidagilar: men, sen, u, biz, siz, ular.

Kishilik olmoshlarining I va II shaxs ko'pligiga –lar qo'shimchasi qo'shib kelishi ham mumkin: bizlar keldik. Sizlar boringiz. Bunda ko'plik ma'nosi ta'kidlanadi.

Arab tilida bunday ifoda uslubi mavjud emas. Kishilik olmoshlari men va sen qaratqich va tushum kelishiklarida kelganda, shuningdek, -ning qo'shimchasini olganda, bir n tushib qoladi va shunday yoziladi: mening, meni, sening, seni, meniki, seniki, -niki qo'shimchasi biror predmet yoki narsaga egalik ma'nosini anglatadi.

Kishilik olmoshining III shaxs birligi jo'nalish, o'rin payt, chiqish kelishiklari bilan turlanganda, bir n ortiriladi va shunday yoziladi: unga, unda, undan.

O'zlik olmoshi.

Predmetni aniqlab yoki ta'kidlab ko'rsatish uchun ishlatiladigan o'z so'zi o'zlik olmoshi deyiladi. Masalan: Tursunoy Karimova o'z brigadasida ishni yaxshi uyushtirdi.

Arab tilida o'zlik olmoshi, birikma olmoshi tarzida ifoda etiladi. Ba'zi o'rinlarda (nafsun) نفس so'zi o'zbek tilidagi o'zlik olmoshi mazmunini berishi mumkin yoki birikma olmoshlari.

O'zlik olmoshining ma'nosi ikki xil:

1. O'z uyi, o'z vatani kabi birikmalarda o'z olmoshi ot bilan bog'lanib, predmetning shu ot so'nggidagi egalik qo'shimchasi ko'rsatgan shaxsga xosligini, tegishliligini ta'kidlaydi. Bunday xollarda u qaralmish bilan moslashib, qaratqich kelishigida ham kelishi mumkin: o'zimning kitobim kabi.

2. Bu kitobni o'zim sotib oldim jumlasida esa o'zlik olmoshi egalik qo'shimchalari bilan kelib, o'zim (men o'zim), o'zing (sen o'zing), o'zi (u o'zi) singari shaxsning tanholigini ta'kidlaydi. Bu rasmni o'zim ishladim.

O'zlik olmoshi egalik qo'shimchalarini olib, uchala shaxs o'rnida ham ishlatiladi. (o'zim-men, o'zing-sen, o'zi-u) va umuman predmet oti o'rnida kela oladi. Bu soat juda to'g'ri yuradi. O'zi (soat) qimmat emas.

O'zlik olmoshi turlanadi. Biroq bunda kelishik qo'shimchalari bo'lishi shart. Masalan: o'ziga boqma, so'ziga boq.

Ko'rsatish olmoshlari

Predmetni ko'rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlar ko'rsatish olmoshi deyiladi. Masalan, O'qituvchimiz mana bu binoda turadi.

Ko'rsatish olmoshlari quyidagilar: u, bu, shu, o'sha, ana, mana, ana shu, mana bu, anavi.

U ko'rsatish olmoshi kishilik olmoshining III shaxs birligi bilan shaklan bir xildir. Gapda ular bir-biridan ma'nosiga qarab farq qilishi mumkin.: Navoiy ulug' yozuvchidir. U XV asrda yashagan gaplarida u so'zi kishilik olmoshi bo'lib, kim? So'rog'iga javob bo'ladi. U kitob meniki gapida u ko'rsatish olmoshi bo'lib, qaysi? So'rog'iga javob bo'ladi.

U, bu, shu, o'sha olmoshlari jo'nalish, o'rin payt yoki chiqish kelishigi bilan turlanganda yoki ularga -day, -cha qo'shimchalari qo'shilganda, qo'shimcha oldidan bir n tovushi ortiriladi va shunday yoziladi: unda, unga, undan, unday, bunday, o'shanday, shuncha.

So'roq olmoshi.

Biror predmet, belgi yoki son haqidagi so'roqni bildirgan olmoshlar so'roq olmoshi deyiladi. Masalan: Siz kimsiz, menda nima ishingiz bor. Musobaqada birinchilikni nechanchi zveno oldi?

Kim, nima olmoshlari birlik va ko'plikda qo'llanadi, egalik va kelishik qo'shimchalarini oladi. Kim so'zladi? Muzeida nimalarni ko'rdingiz? Bu kishi kimingiz bo'ladi? (Siz bu ayolning kimi bo'lasiz?) ماذ تلو أنت من هذه امرأة? bu ayolning kimi bo'lasiz? Qanday, qanaqa, qaysi olmoshlari belgini aniqlash uchun ishlatiladi: Qanaqa qalam olding? Qaysi kitob seniki.

Qancha, nechta, nechanchi, necha olmoshlari son miqdorini aniqlash uchun ishlatiladi.

Belgilash olmoshlari.

Predmetlarni belgilash uchun ishlatiladigan olmoshlar belgilash olmoshi deyiladi. Masalan: Hamma sog', dimog'lar chog' edi. Har kim ekanin o'rar.

Belgilash olmoshlari quyidagilar: hamma, barcha, bari, jami, butun, har kim, har nima, har bir, har qaysi.

Belgilash olmoshlari tarkidagi har so'zi ayrib yoziladi.

Hamma, barcha belgilash olmoshlari ko'plik ma'nosini angdatadi. Hamma bordi. Barcha eshitdi. Bu olmoshlar -lar ko'plik qo'shimchasini olib, hammalari, barchalari shaklida ham ishlatiladi.

Belgilash olmoshlari egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi, masalan: Hammasining bir istagi bor.

Bo'lishsizlik olmoshi.

Inkor ma'nosini bildirgan olmoshlar bo'lishsizlik olmoshi deyiladi, masalan, Do'konxonada Shokir otadan boshqa hech kim yo'q.

Bo'lishsizlik olmoshlari egalik va kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanadi, masalan: U o'z kitoblarini hech kimdan ayamay o'qigani berar edi.

Bo'lishsizlik olmoshini hosil qiluvchi hech so'zi har vaqt ayrim yoziladi: hech kim, hech nima, hech qanaqa, hech qanday, hech qaysi, hech narsa.

Gumon olmoshlari.

Noaniqlik, gumon ma'nosini bildirgan olmoshlar gumon olmoshi deyiladi, masalan: Devor orqasidan allakimlarning ovozi eshitilar edi.

Ot o'rnida ishlatiladigan gumon olmoshlari birlik va ko'plikda kela oladi hamda kelishik bilan turlanadi, masalan: Mirahmad allanarsalarni o'yladi. Kimdir kanizakni chaqirdi.

Alla- yordami bilan hosil qilingan gumon olmoshlari har doim qo'shib yoziladi: allakim, allanima, allanarsa, allaqancha.

Sonlardan (nisbiy) sifatning yasalishi.

Arab tilida sonlardan nisbiy sifat yasalishi mumkin: Bunda odatdagidek **يَاقِي** qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan taqsim son arab tilida **فُعَالِي** qollipida yasaladi. U biror narsa, tushuncha yoki hodisani bir necha qismdan iborat ekanligi, bir necha bo'lak qismni o'z ichiga olishi bildiradi. Masalan: **ثَنَائِي** ikki bo'lak, ikki qism ma'nosini bildiradi. Grammatik matnlarda **ثَنَائِي**, **ثَلَاثِي**, **بَاعِي** so'zlari ikki harfli (o'zakli), uch o'zakli va to'rt o'zakli ma'nolarini anglatadi.

مَوْنِي so'zi yuzlik, yuztalik ma'nolarini bildiradi.

أَلْفِي – minglik, mingtalik

النَّصِيبَةُ الْمَوْنِيَّةُ – foiziy nisbat (protsentdagi nisbat)

الْعِيدُ الْحَمْسَنِي = **الْعِيدُ الْحَمْسُونِي** – Ellik yillik bayram

Arab tilida olmoshlarning turlari.

Arab nahvchilari olmoshlarni alohida so'z turkumi sifatida talqin etmaydilar, balki uni ism turkumida talqin etadilar va quyidagicha tasniflaydilar.

1. Shaxsiy olmoshlarni (**الْإِسْمُ الْمَضْمَر**) deb ataydilar. (ya'ni nazarda tutuluvchi otlar **مُفَصَّلُ ضَمِير**)

2. Ko'rsatish olmoshlari (**الْإِشَارَةُ الْإِسْم**)

3. Nisbiy olmoshlar (**الْإِسْمُ الْمَوْصُول**) birlashtiruvchi olmoshlar.

4. So'roq olmoshlari (**الْإِسْمُ السُّئَالِي**)

Bundan tashqari ko'rsatish va nisbiy olmoshlarni arab nahvchilar noma'lum ma'noli otlar **مُهَيْمَةُ أَسْمَا** deb ataydilar. Birikma olmoshlarini esa kishilik olmoshlari toifasida talqin etadilar, ya'ni **مُتَّصِلُ ضَمِير**, kishilik olmoshini esa **كِتَابَة** deb ham ataydilar.

Endi olmoshlarning turlari bo'yicha o'zbek va arab tillaridagi olmoshlarni solishtirsak,

O'zbek tilida nisbiy olmoshlar turlari yo'q ekanligi, arab tilida esa o'zbek tilidan farqli o'laroq belgilash olmoshlari, bo'lishsizlik va gumon olmoshlari yo'q ekanligi va bu mavjud bo'lmagan olmosh turlari boshqa so'z yoki olmosh turlari bilan almashtirilishi mumkin ekanligini ko'ramiz.

Olmoshlarning jumalardagi grammatik vazifalari.

Yuqorida biz o'zbek tilidagi olmoshlarning grammatik vazifalariga to'xtalib o'tdik. Endi qisqacha arab tilidagi olmoshlarning grammatik funksiyalariga to'xtalib o'tamiz.

Arab tilda shaxsiy olmoshlar ega vazifasini bajaradi.

Birikma olmoshlari esa otlar bilan birikib o'zlik ma'nosini kasb etadi. Fe'l bilan kelganda esa to'ldiruvchi bo'lib keladi.

Ko'rsatish olmoshi esa ega, aniqlovchi vazifasini bajaradi. Shuningdek **إِلَيْهِ** bo'lishi mumkin. Arab tildagi akkuzativ mustaqil birikma olmoshi o'zbek tilidagi tushum yoki boshqa kelishikda tushangan shaxsiy olmosh vazifasini bajaradi. Masalan: **أَعْطَيْتُكَ إِيَّاهُ** Men uni senga berdim.

إِيَّاكَ نَعْبُدُ وَإِيَّاكَ نَسْتَعِينُ

– **نُعْطِيهِ إِيَّاهُ** – Sen uni menga berasan

– **يُرِيهِمْ إِيَّاكَ** – U senga ularni ko'rsatdi.

So'roq olmoshlari so'roq yuklamalaridan farq qiladi. So'roq yuklamalari **مَا** va **مَنْ** odatda sodda so'roq jumalarda va ergash gaplar tarkibida qo'llaniladi.

Nisbiy olmoshlar ham ergash gaplar tarkibida ishtrok etadilar.

Bundan tashqari olmoshlar vazifasida, ular maqomida ishlatiluvchi so'zlar ham bor.

Bular so'roq so'z **كَمْ** – nechta? **كَا** – mana buncha (skolko-to)

Arab mualliflari bu so'zlarni "Belgili so'zlar", boshqa so'zlar o'rniga qo'yiluvchi so'zlar (**كُنَايَات**) deb ataydilar.

كَمْ so'zidan keyin ot noaniq xolatda va tushum kelishigida qo'yiladi. **كَمْ كِتَابًا عِنْدَكَ** senda nechta kitob bor?

Agar u **ب** old ko'makchisi bilan qo'llanilsa, undan keyingi ot qaratqich kelishigida qo'yiladi.

هَذَا **بِكَمْ دِينَارٍ** **أَشْتَرَيْتَ هَذَا** Za skolko dinarov ti kupil eto? Sen buni necha dinorga sotib olding?

So'roq ma'nosidagi so'zdan keyingi **كَمْ** yuklamasidan keyin so'z qaratqich kelishigida qo'yiladi.

Unda nechta kitob borligini bilmayman. **لَا أَعْرِفُ كَمْ كِتَابٍ عِنْدَهُ**

كَمْ so'zidan keyin ot tushum kelishigida qo'yiladi.

كَمْ shuncha, shuncha dinor

كَمْ so'zi birikmaning ikkinchi bo'lagi ham bo'lishi mumkin.

كَمْ **فِي سَنَةٍ** falonchi yilda

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. o'zbek tilida qanday olmoshlar bor?
2. O'zbek tilidagi egalik olmoshlari arab tilidagi qaysi so'z tur olmoshlariga mos keladi?
3. Nechanchi shaxs kishilik olmoshlari turlanganda n tushib qoladi yoki orttiriladi?
4. O'zlik olmoshlari turlanadimi?
5. Arab tilida qanday olmoshlar bor?
6. كم olmoshmi?
7. كناية nima?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Arab va o'zbek tillarida nisbiy olmoshlarning gapdagi grammatik vazifasini sharhlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. Sopostavitelnaya grammatika russkogo i uzbekskogo yazikov. A.A. Azizov. Toshkent 1983y.
2. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osvemenii. Grande B.M. M.: 1998,
3. Uchebnik arabskogo yazika. Xolidov B.Z. T1981y

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Arab tili darsligi (tarkib qoidalari) "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. T.2009y.
2. O. Musaev. Arab tili asosiy qoidalar tizimi. T.-2000y.
3. النحو الواضح. مصطفى أمين، علي جارم. بغداد 1998م.

MA'RUZA №8

Mavzu : O'zbek va arab tillarida grammatik son va kelishik kategoriyalarining ifodalanishi

Dars o'quv maqsadi: arab va o'zbek tillaridagi kelishik va son kategoriyalarining o'xshash va tafovutli jihatlari haqida qiyosiy – tahliliy ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Otlarning son kategoriyasi, birlik, ko'plik.
2. Ikkilik, (بَيْنَ، اِنْ، اَيْنَ);
3. Fe'l, ikkilik، اِنْ، اَيْنَ، اَيْنَ;
4. Siniq ko'plik, ikki kelishikli ot.
- 5.

Asosiy savollar:

2. O'zbek va arab tillarida grammatik son kategoriyalari;
3. O'zbek va arab tillaridagi ko'plik son kategoriyasi;
4. Arab tilidagi ikkilik kategoriyasi;
5. Otlarning siniq ko'pligi;
6. Arab va o'zbek tillarida kelishikni ifodalanishi.

O'zbek va arab tillarida grammatik son kategoriyasi

Ma'lumki, o'zbek tilida otlarning birlik va ko'plik sonlari mavjud.

O'zbek tilida otlarning ko'plik soni –lar qo'shimchasi bilan yasaladi. O'zbek tilida jins kategoriyasi bo'lmaganligi uchun, unda moslashuv arab tilidagidan farq qiladi.

Arab tilida birlik, ikkilik va ko'plik son kategoriyalari mavjud.

Bundan tashqari arab tilida otlarning ko'pligi ikki xil usulda to'g'ri; ya'ni muzakkardagi otlarga وَنَ (bosh. k-k) (بَيْنَ) qo'shimchalari, qo'shib, muannas jisdagi otlardan esa, noaniq holatda اِنْ (at) qo'shimchalari, aniq xolatda اَيْنَ (at) qo'shimchasi qo'shib yasaladi.

O'zbek tilida asli sifatdan yoki yaaslgan ot bo'lib, ular faqat birlikda qo'llaniladi. Masalan: go'zallik, tezlik, tinchlik, vatanparvarlik, ozodlik, bolalik va h.k.

Bundan tashqari o'lchash mumkin bo'lgan narsa, (moddalar) masalan: asal, yog', tuz, kumush, oltin, temir, choy, un va mavhum otlar: muhabbat, vijdon, chidam va boshqalar.

O'zbek tilida ko'plik –lar qo'shimchasi hurmat-ehtiromni ifoda etish uchun ham qo'llaniladi.

Arab tilidagi ikkilik soni o'zbek tilida yo'q. Uni o'zbek tilida 2 so'zi bilan ifodalanadi.

Arab tilida ikkilik otlarga اَيْنَ (ayn) qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi.

Oxiri اَيْنَ bilan tugagan otlardan ikkilik yasalganda اَيْنَ o'rniga اَيْنَ qo'yiladi. Masalan:

صحروان – صحراء حمروان – حمراء

بَيْنَ bilan tugagan ismlarda esa cho'ziq اَيْنَ qisqa اَيْنَ ga aylanadi. Masalan: معنيان – معنى

Ikkilik soni arab tilida fe'llarda ham mavjud. O'tgan zamon fe'lining 2-3 shaxslarida ikkilik shaxs qo'shimchalari quyidagicha

bo'ladi. 2-shaxs va 3-shaxsda fe'l boshiga pristavkalar 2-shaxsda ت , 3-shaxs muzakkar ي , muannas ت fe'l oxiriga esa ان qo'shimchasi.

Ikkilik kategoriyasi ko'rsatish, nisbiy, kishilik, birikma olmoshlarida xam namoyon bo'ladi. Fe'llarda ikkilik faqat arab adabiy tilidagina qo'llanadi. Arab laxjalarida fe'lning ikkilik shakli yo'q.

Otlarning ikkilik shakli arab adabiy tilida to'liq namoyon bo'lsa, lahjalarda faqat tushum kelishigidagina qo'llanilishi mumkin.

Arab tilidagi otlarning siniq ko'pligi.

Arab tili fiktiv tillar guruxiga kirishini yaxshi bilamiz. Shuning uchun ham arab tilida ko'plikning ikki turi: to'g'ri ko'plik va siniq ko'plik mavjud.

To'g'ri ko'plik xuddi o'zbek tilidagidek so'z oxiriga ma'lum qo'shimchalar qo'shib yasaladi. Siniq ko'plikda xuddi o'zbek tilidagidek so'z oxiriga ma'lum qo'shimchalar qo'yib yasaladi. Siniq ko'plikda esa, so'zning ikki strukturasi undagi (undagi unlilar) undagilarning orasiga cho'ziq unli va qisqa unlilar qo'yish orqali yasaladi.

Arab tilida, ba'zi qolipdagi otlarning ko'plik shaklini yasashning aniq marfalogik qoidalari mavjud. chunonchi, فعلة va فعل qolipidagi otlardan siniq ko'plik فعل yasaladi. Masalan دولة دول qolipida. To'rt xarfli otlardan esa مفاعل فعال افعال فاعل qoliplarida yasaladi. Masalan مفاعل فعاليل افاعيل harfli so'zlardan esa مفاعل فعاليل besh (o'zakli) harfli so'zlardan esa مفاعل فعاليل Chet tildan kirgan qoliplarida yasalishi mumkin. Masalan سلاطين سلطان Chet tildan kirgan so'zlar bo'lsa, ulardan فعالية yoki فعاليل qolipidagi ko'plik yasaladi. Masalan:

أستاذ - أستاذة - أستاذ

تلميذ - تلميذة - تلميذ

Agar ot 5 dan ortiq xarfdan tarkib topgan bo'lsa, oxirgi 2 undosh olib tashlanib 4 xarflik otlar yasalanadigan qolipga solib ko'plik yasaladi. Masalan:

عادل - عدل - عدلي

Arab va o'zbek tillarida kelishiklarning ifodalanishi.

O'zbek tilida 6ta kelishik bor. Bular: bosh, tushum, qaratqich, o'rin payt, jo'nalish va chiqish kelishiklari. Bu kelishiklardan bosh kelishik bosh kelishik morfologik ko'rsatkichga ega emas. Arab tilida kelishiklar 3ta bo'lib (bosh, tushum, qaratqich) ularning hammasi morfologik ko'rsatkichga ega, ya'ni

Bosh kelishik ٥ -damma

Tushum kelishigi ٥ - fatha

Qaratqich kelishigi ٥ kasra.

O'zbek tilida ot bosh kelishikda hech qanday qo'shimcha olmaydiyu

Tushum kelishigi - ni;

Qaratqich kelishigi - ning;

O'rin payt kelishigi - da;

Jo'nalish kelishigi - ga;

Chiqish kelishigi - dan.

- Arab tilida bosh kelishik noaniq xolatda tanvin damma, aniq xolatda esa damma bilan ifodalanadi.

- Qaratqich kelishigi noaniq xolda tanvin kasra, aniq holatda kasra bilan ifodalanadi.

- Tushum kelishigi noaniq xolatda tanvin fatha bilan, aniq holda esa fatha bilan ifoda etadi.

Bundan tashqari to'g'ri ko'plik muzakkar va muannasdagi otlarning kelishik ko'rsatkichlari boshqacha ifodalanadi. Biz yuqorida to'g'ri ko'plikdagi qo'shimchalar ularning kelishik ko'rsatkichlarini ham ifodalaydi.

Arab tilida bosh kelishik qaratqich kelishigi orqali, bosh, tushum, qaratqich kelishiklar 1ta tushum kelishigi shaklida ifodalanadigan holatlar ham mavjud. Masalan : قاضي bosh va qaratqich kelishigi, قاضياً tushum kelishigi.

المستشفى - مستشفى - bosh, tushum, qaratqich kelishigi

العصا - عصا - bosh, tushum, qaratqich kelishigi

Ikki kelishikli otlarda tushum-qaratqich kelishigi bitta ko'rsatkich (qo'shimcha) orqali ifodalanadi (٥ - fatha bilan)

توشۇم va قاراتقىچ kelishigi. مسائل - مسائل

٥ ئىن bosh kelishik توشۇم -qaratqich kelishigi qo'shimchalarini oladi.

Fe'llar ham arab tilida kelishik ko'rsatkichiga ega. O'tgan zamon fe'llari (3o'zakli fe'llar, ikkilangan, to'g'riga o'xshash, hamzali fe'llar) fatxaga tugaydi. Hozirgi zamon fe'llar aniq daraja (xabar maylida) damma va istak maylida esa fathaga tugaydi.

Umuman, arab tilida kelishik kategoriyasi murakkab grammatik kategoriyalar qatoriga kiradi. Otlar turli omillar ta'sirida kelishik ko'rsatkichlarini o'zgartirishlari mumkin.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. O'zbek tilida grammatik son kategoriyasi qanday ifodalanadi?
2. Arab tilida otlarning son kategoriyasi qanday ifodalanadi?
3. O'zbek tilida qanday otlar ko'plikda ishlatilmaydi?
4. Arab tilida siniq ko'plik qanday ifodalanadi?
5. O'zbek va arab tilidagi kelishik ko'rsatkichlarini qiyosiy sharhlab bering.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Arab va o'zbek tillari grammatikasidagi kelishik va son kategoriyalarining o'xshash va farqli jihatlarini sharhlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. Sopostavitelnaya grammatika russkogo i uzbekskogo yazykov. A.A.Azizov. Toshkent 1983y.
2. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitel'no-istoricheskoy osvechenii. Grande B.M. M.:1998g
3. N.Ibragimov, M.Yusupov "Arab tili grammatikasi" T.1997y.
4. G'.Abdurahmonov. O'zbek tili grammatikasi. T. 1996y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Arab tili darsligi (tarkib qoidalari) "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. T.2009y.
2. O.Musaev. Arab tili asosiy qoidalar tizimi. T.-2000y.
3. Sunnatulloh Bekpo'lat. Arab nahvi. T.-2007y.
4. Muhammad Fatih. قواعد اللغة العربية. بغداد-1975م

MA'RUZA № 9

Mavzu: Arab va o'zbek tillarida moslashuv kategoriyasining ifodalanishi

Dars o'quv maqsadi: Arab va o'zbek tillarida moslashuv kategoriyasining grammatik xususiyatlari haqida malaka va ko'nikmalar hosil qilish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Moslashuv, hokim, tobe so'z.
2. Bitishuv, so'z bog'lanishi.
3. Birikuv, so'z bog'lanishi.
4. Lafziy izofada birikuv qanday amalga oshiriladi.

5. النعت الحقيقي, النعت.

Asosiy savollar:

1. O'zbek tilida moslashuvning ifodalanishi.
2. So'zlarning bitishuv orqali aloqaga kirishuvi.
3. So'zlarning boshqaruv orqali birikuvi.
4. Arab tilida moslashuvning ifodalanishi.
5. النعت الحقيقي (صفة النعت)

Moslashuv so'z birikmasi tarkibidagi element (so'z)larning o'zaro ergashish munosabatida bo'lishdir. Bunda voqea-hodisa belgisi yoki predmetning ma'lum (shaxs) predmetga tegishliligi, xosligi ko'rinadi.

Bir edement hokim va boshqa biri tobe bo'ladi. Hokim elementning o'zgarishi bilan tobe' element ham o'z shaklini o'zgartirib unga moslashadi. Qaratqich kelishigidagi ot yoki otlashgan so'z qaralmish bilan moslashuv aloqasiga kirishadi. Masalan: paxtaning tolas. Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l. O'zbek tilida so'zlar o'zaro quyidagi usullar bilan bog'lanadi.

Bitishuv. O'zbek tilida bu aloqada ikki so'z hech qanday shakliy ko'rsatkichlarsiz bog'lanadi. Bunda tobe so'zning hokim so'zga munosabati tartib va intonatsiyadan bilinadi: Oppoq qor, yashil dala, sekin yurmoq kabi. Bitishuv aloqasida hokim so'z o'z shaklini o'zgartirsa ham, tobe so'z o'z formasini o'zgartirmaydi. Bu tobe so'zning leksik – grammatik xususiyati bilan belgilanadi. O'zbek tilida tobe element odatda kategorial xususiyati ko'ra morfologik jihatdan o'zgaraydigan so'z turkumidan bo'ladi.

Tobe so'z vazifasida asosan sifat va ravish keladi. Biroq sifat ravish vazifasidagi, xarakteridagi boshqa so'zlar ham tobe so'z funksiyasida kela oladi: Chiroyli bino, tez yugurmoq, "devor soat", uy vazifa, ot to'ra kabi xoslik, mansublik munosabatini bildiradigan birikmalarning komponentlari ham o'zaro bitishuv aloqasiga kirishgan. Chunki, ular formal-grammatik yoki leksik grammatik vositalar orqali emas, balki tartib orqali bir-biri bilan bog'lanadi.

Bitishuv orqasida hokim so'z ot va fe'ldan iborat bo'ladi. Hokim so'z otdan tarkib topgan bo'lsa, atributiv munosabat ifodalanadi: ko'm-ko'k dala, tiniq suv, musaffo osmon kabi.

Arab tilida so'zlarning bunday munosabati, moslashgan aniqlovchilik birikma yoki izofa birikmasi orqali ifodalanadi.

Hokim soʻz feʼldan boʻlganda holli munosabat ifodalanadi: tez yurmoq, koʻp gapirmoq. Arab tilida bunday bitishuvda tez, koʻp soʻzlari hol shaklida ifoda etiladi.

تعلم، كثيراً، مشى، مسرعاً

Baʼzi soʻzlarda kelishik qoʻshimchalari oʻz grammatik funksiyasini bajara olmaydi: Yaqinda kelmoq, chindan aytmq, tezda qaytmoq.

Boshqaruv aloqasi. Bu aloqada tobe soʻz hokim soʻzning talabi bilan maʼlum shaklga kiradi: Tobe soʻz yo biror kelishik qoʻshimchasini oladi. Yoki biror koʻmakchi bilan birga keladi. Shunga qarab boshqaruv aloqasi ikki turga ajraladi:

a) kelishikli boshqaruv

b) koʻmakchilik boshqaruv.

Kelishikli boshqaruvda tobe soʻz hokim soʻzning talabi bilan tushum, joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishiklaridan birida qoʻllanadi. Bu uning tobeligini koʻrsatuvchi belgidir. Iloji boʻlsa, sizni bu kvartiradan hovli uyga koʻchiramiz.

Koʻmakchili boshqaruvda tobe soʻz hokim soʻzning talabiga binoan biror koʻmakchi bilan birga qoʻllanadi. Bu uning tobeligini koʻrsatuvchi belgidir.

Oʻzbek tilidagi moslashuvda tobe soʻz oʻz shaklini hokim soʻzning shakliga tenglashtiradi. Bunda hokim soʻzning shakli oʻzgarishi bilan tobe soʻzning shakli ham oʻzgaradi. Tobe soʻz oʻz shaklini hokim soʻzning shakliga muvofiq lashtiradi, moslashtiradi. Demak, moslashuv aloqasida hokim soʻz shaklining oʻzgarishi tobe soʻzga taʼsir qiladi. Shu jumladan u boshqaruv aloqasidan farq qiladi. (boshqaruv aloqasida hokim soʻz shaklining oʻzgarishi tobe soʻzga taʼsir qilmas edi).

Moslashuv aloqasi orqali, asosan, predikativ munosabat ifodalanadi. Masalan: Biz hayotni sevamiz, tinchlik istaymiz. Bu gapda kesim vazifasida kelgan sevamiz, istaymiz-soʻzlari ega vazifasida kelgan “biz” soʻz bilan moslashgan.

Oʻzbek tilida moslashuv shaxs va son jihatdan boʻlishi mumkin.

Kesim vazifasidagi soʻzning oʻz hokim soʻziga shaxs va son jihatdan mospashishga ega I va II shaxs olmoshlari bilan ifodalanganda roʻy beradi.

Demak, bu yerda toʻliq moslikni koʻramiz; Men keldim, Siz keldingiz kabi.

Ega koʻplikdagi III shaxs olmoshi bilan yoki ot bilan ifodalanganda, kesim vazifasidagi soʻz u bilan shaxs jihatidan esa moslashishi shart emas.

Arab tilida moslashgan aniqlovchilik munosabatda moslashuv kategoriyasi koʻpgina morfologik koʻrsatkichlar, chunonchi shaxs, son, kelishik hamda holatda namoyon boʻladi, yani mazkur koʻrsatkichlar boʻyicha moslashuv toʻliq boʻladi. Masalan:

المدن الضخمة. Ulkan shaxarlar

Moslashuv aloqasi soʻz birikmasi sostavidagi elementlar orasida ham uchrashi mumkin. Qaratuvchi va qaralmish munosabatini ifodalovchi birikmalarning elementlari orasida moslashuv aloqasini koʻrish mumkin. Masalan: Mening oʻgʻlim. Arab tilida bunday birikma birikma olmoshlari orqali ifo da etiladi. Masalan: ابن Arab tili nuqtai nazaridan koʻrib chiqadigan boʻlsak, bitishuv, boshqaruv hollari oʻziga xos tarzda sodir boʻladi. Tobe va hokim soʻzlar birikib, moslashgan aniqlovchi hosil qiladi. Moslashgan aniqlovchi odatda predmetning belgisini bildiruvchi sifatlovchi aniqlovchidir. Moslashgan aniqlovchi koʻpincha asliy va nisbiy sifatlardan, tartib sonlardan, aniq va majhul nisbat sifatoshlardan, koʻrsatish olmoshlaridan va boshqalardan ifodalan adi. Arablar bunday aniqlovchilik munosabatini العت deb ataydilar. Oʻzbek tiliga uni asliy sifat ishlatish mumkin. Narsa rang tusi, inson va jonivorlarning fizik vaichki xususiyatlari xullas, sezgi azolari bilan bilib boʻladigan belgilar asliy sifat orqali ifodalanadi. Gapda sifat moslashgan aniqlovchi boʻlib keladi.

Asliy sifat narsaning qandayligini, xususiyatini, shaklini, tusini, miqdori va yasashiga koʻra belgisini koʻrsatad. U tobe boʻlib kelayotgan ismni sifatlaydi, yani izohlaydi va u bilan yuqorida aytib oʻtganimizdek 4 holatda moslashadi.

Sifatlar barcha turlari keyin qoʻyiladi. Faqat koʻrsatish olmoshlarigina otdan oldin qoʻyiladi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Moslashuv deb nimaga aytiladi ?
2. Soʻzlar bitishuv orqali qanday bogʻlanadi ?
3. Birikuv nima ? Unda soʻzlar qanday aloqaga kiradi ?
4. النعت السببىلى - النعت nima?
5. Arab tilida moslashgan aniqlovchi qanday ifodalanadi ?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Arab tilida moslashuv kategoriyasining sondagi ifodasini bayon qiling (referat).

Asosiy adabiyotlar:

1. B. Grande . Kurs arabskoy gramatiki v sravnitelno – istoricheskoy osveshenii. M. 1998g.
2. A. G‘ulomov, M.A. Asqarova “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. T. 1968y.
3. G‘. Abdurahmonov, X. Rustamova “Ona tili 10-11- sinf”. T. 1997y.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. V.G.Lebedev, Yu.I.Malyarov. Uchebnik po recevoy praktika arabskogo yazqka. Osnovnoy kurs. Chast-2. M. 1984g.
2. V.G.Lebedev. Arabskaya grammatika. M. 1984g.
3. Muhammad Fatih. قواعد اللغة العربية. بغداد-1975م.
4. النحو الواضح. مصطفى أمين، علي جارم. بغداد 1998م.

MA’RUZA № 10

Mavzu: Arab va o‘zbek tillarida otlarning turlari va ularning yasaliş usullari

Dars o‘quv maqsadi: Arab va o‘zbek tillarida otlarning tasnifi, yasalişidagi morfologik xususiyatlar, kelishik va son kategoriyalaridagi farqlarni qiyosiy tahlil qilish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. معرفة، علم، جامد، ملبني
2. Abstrakt, nisbiy ot, masdar.
3. Kichraytma otlar, والمكان الزمان اسما

Asosiy savollar:

1. O‘zbek va arab tillarida otlarning tasnifi;
2. Arab va o‘zbek tillarida o‘xshash ot turlari;
3. Arab va o‘zbek tillarida otlarning yasalişidagi o‘ziga xos xususiyatlari;
4. Otlarda kelishik va son kategoriyalarining ifodalanishi va farqlari.

Ma’lumki, ot-so‘z turkumlaridan biri, konkret predmetlarni yoki predmet sifatida tasavvur qilinadigan tushunchalarni ifodalaydigan mustaqil so‘zlar. Otlar quyidagi morfologik belgilarga ega:

1) son kategoriyasiga – otlarning birlik va ko‘plik formalari: kitob, kitoblar, bir necha kitoblar;

2) egalik kategoriyasiga predmetning nutqdagi 3 shaxsdan biriga taalluqli ekanligini ifodalovchi formalar yig‘indisi: kitobim, kitobing, kitobi va h.k.

3) kishilik kategoriyasiga – ot yoki otlashgan so‘zning so‘zning boshqa so‘zlarga grammatik jihatdan bog‘lanishni ta’minlaydigan formalar yig‘indisi: kitobni, kitobda, kitobga, kitobdan kabi;

4) ot yasovchi maxsus affikslarga (-chi, -dosh, -kash, -bon, -shunos, -dor kabi) narsa-qurol oti yasovchilarga (-k, -ik, -un, -k, -iq, -uq, -oq, -ki, -kich, -ma kabi) o‘rin-joy oti yasovchilarga (-loq, -zor, -iston kabi), abstrakt ot yasovchilarga (-lik, -chilik, -garchilik, -izm kabi) ega. Bu affikslar turli tillarda turlichadir.

Xususan arab tilida yuqoridagi otlar affikslar yordamida emas, balki prefikslar yordamida va ayrim hollardagina affikslar qo‘shilib yasalişishi mumkin.

Ma’no jihatdan otlar dastlab ikki turga – atoqli (Toshkent, Oybek, Erkin kabi) va turdosh otlar (shamol, daryo, odam kabi) otlarga bo‘linadi. Turdosh otlar o‘z navbatida konkret (daraxt, mashina va boshqalar kabi), abstrakt (aql, idrok, buhabbat, fojia kabi), yakka (tolib, o‘qituvchi, ishchi kabi) va jamlovchi (xalq, armiya, ozchilik, ko‘pchilik kabi) otlarga bo‘linadi.

Arab va o‘zbek tillarida otlar morfologik va sintaktik usullar bilan yasaladi. Ish+chi – ishchi, kasb+dosh – kasbdosh, ko‘z+oynak – ko‘zoynak. Tuzilishiga ko‘ra otlar sodda (ruchka, qalam, xizmatchi kabi), qo‘shma (bedana, oqqush kabi), juft (opa-singil, ota-bola kabi), qisqartma (BMT, AQSh kabi) otlarga bo‘linadi.

O‘zbek tilida otlarning qizcha (kichraytish), qizaloq (erkalash), onajon (hurmat), Abdullavoy (hazil va istehzo) kabi formalari sanaladi.

Otlar gapda ko‘proq ega, to‘ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi, hol vazifalarida keladi. Ammo o‘rni bilan sifatlovchi, izohlovchi yoki kesim bo‘lib keishi ham mumkin.

Umumiy tarzda arab tilidagi otlarni tasniflaydigan bo‘lsak, ular quyidagilardir:

I. ish harakat nomi (fe‘ldan yasalgan ismlar) – masdar. Masdar ot sifatida kelishiklarda o‘zgaradi. Ba’zi masdarlar asl ma’nosidan

o'zga ma'noni anglatadi. Odatda lug'atlarda bu otlar oddiy so'z sifatida beriladi. Masalan, علم-bilish, fan; صلح-tinchlik, sulh; شرق-sharq va hokazo.

II. Bir martalik harakat nomi (اسم المرة) - imya odnokratnosti. Ish harakatning bir marta sodir bo'lgandigini bildiruvchi so'z bir martalik harakat nomi deyiladi. Bir martalik harakat nomi masdar oxiriga ة harfini qo'yish bilan hosil bo'ladi. Masalan, ضرب-urmoq→masdar ضرب-urish, bir marta urish. Agar masdar - atun- qo'shimchasi bilan tugasa, bir martalik harakat nomi shu masdardan keyin واحدة-“bitta”, “bir” moslashgan aniqlovchisini keltirish bilan hosil qilinadi. Masalan, إجابة واحدة bitta javob. O'zbek tilida bunday ismlar bir, bitta so'zlari bilan ifodalanadi.

III. Ish harakat uslubini anglatuvchi ism (اسم النوع) - imya sposoba deystviya. Biror bir ish-harakatning bajarish uslubini bildiradi. Bunda ismlar فعلة qolipida yasaladi. Masalan, yozish uslubi (manera pisat), النغاة - murojaat qilish uslubi (manera obrazeniya).

IV. Qurol otlari. Ish - harakatni amalga oshirish vositasini bildiruvchi otlar qurol otlari deyiladi. Qurol otlari quyidagi I bobdagi o'timli fe'llardan مفعل, مفعلة, مفعلة vaznlarida hosil bo'ladi. Masalan:

- برد - egovlamoq - مبرد - egov;
- كس - supurmoq - مكسة - supurgi;
- فتح - ochmoq - مفتاح - ochqich, kalit.

V. Mavhum otlar. Ish-harakat, sifat yoki holat haqidagi mavhum tushunchalarni ifodalovchi otlar mavhum (abstrakt) ot deyiladi. Arab tilida mavhum otlar quyidagi so'zlar oxiriga ية qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi.

1. Otlarga. Masalan, إنسان - inson→إنسانية - insoniyat, أبد - abad →أبدية - abadiyat.
2. Masdarga. Masalan, اشتراك - qatnashish→اشتركية - sotsializm.
3. Sifatdoshga. Masalan, مسئول - mas'ul→مسؤولية - mas'uliyat.
4. Sifatga. Masalan, أغلب - eng ko'p→أغلبية - ko'pchilik, حر - erkin→حرية - erkinlik.
5. Olmoshga. Masalan, كيف - qanday→كيفية - kayfiyat, هو - u→هوية-shaxsiyat

O'zbek tilida mavhum otlar baynalminal so'zlardan yoki -lik, -izm kabi qo'shimchalar yordamida yasaladi.

VI. Kichraytirma otlar. O'zbek tilida -cha, -qoq, -choq, -chak affiksleri yordamida kichraytirma otlar hosil bo'lganidek, arab tilida ham kichraytirma otlarning ayrim hosil bo'lish vaznlari mavjud:

1. Uch undosh o'zakli so'zlardan فَعِيل vazinad hosil bo'ladi.

Masalan:

كليب→كلب

رجيل→رجل

2. Ikkinchi bo'g'inida cho'ziq unli mavjud bo'lgan so'zlardan فَعِيل vaznida hosil bo'ladi. Masalan:

غلام→غليم - kichkina xizmatkor

جميل→جميل - chiroyli (kichkina)

3. Birinchi bo'g'inida cho'ziq unli mavjud bo'lgan so'zlardan فَوَّيْل vaznida hosil bo'ladi. Masalan:

فويس→فارس - kichik chavandoz

كويتب→كاتب - kichik kotib

خويدم→خادم - kichik xodim

4. Noto'g'ri o'zakli so'zlardan ham shu noto'g'rilikning xususiyatiga mos o'zgarishga uchragan holda hosil bo'ladi. Masalan:

داداجون، ابن→أبي - eshikcha, بويب→باب (aslida بَنِيَّة→بَنَتْ, سَمِيَّة→اسم, o'g'ilcha)

5. To'rt harfdan iborat bo'lgan otlardan ikkinchi undosh tovushdan keyin “ay” qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. Masalan, عُيْرَب→عقرب - masjidcha, مُسَيِّد→مسجد.

6. Agar so'zning oxirida ikkinchi bo'g'inda “a, h, u” cho'ziq unlilaridan biri mavjud bo'lsa, bular cho'ziq “u”ga o'zgarib ketadi. Masalan: عُصْفِير→عصفور, مُقْتَبَح→مقح, چۇمچۇقچا - chumchuqcha;

7. Besh undosh o'zakli so'zlardan kichraytirma so'z hosil qilinganda, oxirgi o'zak undosh tushib qoladi. Masalan: عَنْدَلِب→عنديل, سَفِيرج→سفير;

8. Muannas so'zlardan yasalgan kichraytirma otlarda ham muannaslik belgisi tushib qolmaydi. Masalan: قَلِيعَة→قلعة - mushukcha, حَمِرَاء→حمراء;

9. “ta marbuta” harfisiz hosil bo'lgan muannas otlardan kichraytirma otlar hosil qilinganida oxirida “e” harfi qo'shib qo'yiladi. Masalan: أَرِيضَة→أرض, شَمِيسَة→شمس; kichik yer;

10. qo'shimchasi bilan tugagan ot va sifatlardan kichraytirma otlar hosil qilinganda ham qo'shimchasi saqlanib qoladi.

سليمان - سليمان - كسبان - كسلان

11. Kichraytma ot shakllari ayrim predloglarda ham qo'llaniladi va shu predlogdagi ma'noning oz yoki qisqa ekanligiga ishora qiladi. Masalan: قيل → قيل - bir oz oldin, فوق - bir oz ustida, بعيد → بعيد - biroz keyin.

Dona otlar

Dona otlar bir xil predmetlar ichidagi bir donasini bildiradi va u ot oxiriga "ta marbuta" harfi qo'shish bilan hosil qilinadi. Masalan: نملة - نمل، تفاحة - تفاح

Bulardan tashqari u yoki bu predmetning juda ko'p uchraydigan, hosil bo'ladigan, to'planadigan o'rinni bildiruvchi otlar ham bo'lib, u arab tilida اسم الكثرة deyiladi va مفعلة qolipida yasaladi. Masalan: مطبخة - tarvuz ekilgan poliz, لبنة - لبن sut kombinati.

Endi o'zbek tilidagi muqobillar bo'yicha qiyoslaydigan bo'lsak, o'zbek tilida alohida bir martalik harakat nomi - اسم المرة ish harakatning uslubini anglatuvchi ism - اسم النوع yasaliş yo'llari mavjud emas. Ular ma'lum so'zlarni yoki qo'shimchalarni qo'shish orqali yasaladi.

O'zbek tilida kichraytirish va erkalash otlari

Nutqimizda kichraytish va erkalash otlari qo'llaniladi. Bunday otlar kichraytish, ba'zan esa ham kichraytish, ham erkalash ma'nolarini anglatadigan quyidagi qo'shimchalar bilan hosil qilinadi.

-cha: kitobcha, uycha, yulduzcha;

-choq, -chak, -chiq: qo'zichoq, kelinchak;

-loq: bo'taloq, toyloq.

Odatda o'zbek tili til guruhi jihatdan arab tilidan farq qilganligi tufayli unda otlar o yasovchi qo'shimchalar yordamida yasaladi. Ot yasovchi qo'shimchalar o'zak bilan birikkan holda quyidagi ma'nolarni bildiruvchi otlar yasaydi:

1. Shaxs otlari, 2. buyum-narsa otlari, 3. O'rin-joy otlari, 4. Mavhum otlar.

Shaxs otlari yasovchi qo'shimchalar

-chi. Bu qo'shimcha odatda, shaxsning biror kasb yoki ish bilan shug'ullanishini anglatuvchi otlar yasaydi: suvchi, futbolchi, sportchi, navbatchi.

-dosh. Bu qo'shimcha yordami bilan yasalgan otlar odatda, birgalik, yaqinlik ma'nosini bildiradi: sinfdosh, suhbatdosh, sifatdosh.

Tilimizda -kor (-kar, -char, -chor), -kash, -dor, -bon, -boz, -paz, -xon, -shunos, -do'z, -soz qo'shimchalari bilan yasalgan shaxsni anglatuvchi otlar ham bor: paxtakor, talabgor, miskor, zargar, aravakash, chorvador, saroybon, gilamdo'z va hokazo.

Buyum - narsa oti yasovchi qo'shimchalar va ularning yozilishi

-gich (-kich, -qich, -g'ich): ko'rsatkich, qisqich, chizg'ich;

-gi (-ki, -qi, -g'i): supurgi. Tepki;

-k, -ak: kurak, elak;

-q, -oq; "a" unlisi bilan bitgan o'zakdan -q qo'shimchasi bilan ot yasalganda, o'zakdagi "a" tovushi "o"ga. "ya" esa "yo"ga aylanadi va shunday yoziladi: tara - taroq, bo'ya - bo'yoq;

-iq, -ik: chopiq, topshiriq, teshik, -iq qo'shimchasi o'zakda yoki "yu" tovushi bo'lgan hollarda -uq tarzida aytiladi va shunday yoziladi: uchuq, yutuq;

-ma: bo'g'ma, bosma;

-m, -im: to'plam, tiklam, kiyim. -im qo'shimchasi o'zakda "u" yoki "yu" bo'lgan hollarda -um tarzida yoziladi: qult - qultum, un - unum, yut - yutum. "y" bilan tugagan o'zaklarga -um qo'shilsa, "y+u" o'rniga "yu" yoziladi. Masalan: kuy+um - kuyum, uy+um - uyum;

-don: qalamdon, tuzdon. (محب، مدهن)

O'rin - joy ot yasovchi qo'shimchalar

-zor: gulzor, paxtazor, olmozor;

-iston: O'zbekiston, guliston;

-loq: o'tloq, toshloq.

Mavhum otlar

-lik. Bu ot yasovchi qo'shimcha ot, sifat, son va boshqa turkumlarga xos so'zlardan mavhum otlar yasaydi: bolalik, do'stlik, yaxshilik, birlik.

Nutqimizda -liq qo'shimchasi bilan yasalgan mavhum otlar ham uchraydi: otlik, borliq.

Bundan tashqari o'zbek tilida arab tilidan farqli o'laroq so'zlarni qo'shib ot yasaladi: Sim yog'och, ota-ana, oziq-ovqat, O'z.SSR, yig'im-terim, gultojixo'roz.

So'zlarni qo'shish va ularni qisqartirib qo'shish bilan quyidagi otlar yasaladi:

1. Qo'shma otlar: qorbo'ron, qorbobo;
2. Juft otlar: aka-uka, qarindosh-urug';
3. Qisqartma otlar: RTS, Rayjrokom;

Arab va o'zbek tillarida qisqartma otlarning yasaliishi bir-biriga bir muncha o'xshaydi. Biroq arab tilida qisqartma otlar o'zbek tilidagidek keng tarqalgan emas.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. ميني qanday ot, uning o'zbek tilida muqobili bormi?
2. جامد qanday ot?
3. To'rt o'zakli otlardan masdarlar qaysi qolipda yasaladi?
4. Arab va o'zbek tilida nisbiy olmoshlarning yasaliishini

sharhlang.

Mustaqil ish topshiriqlari:

Arab va o'zbek tillarida kichraytma otlarning yasaliishini qiyosiy – tahliliy bayon qiling.

Asosiy adabiyotlar:

1. B. Grande . Kurs arabskoy gramatiki v sravnitelno – istoricheskoy osvishenii. M. 1998g.
2. N.Ibragimov, M.Yusupov "Arab tili grammatikasi" T.1997y.
3. الشيخ مصطفى الغلاييني. الدروس العربية. بيروت-1993م
4. G.Sh.Sharbatov. Sovremenniy arabskiy yazik. M.-1982g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. K.Kuzmin. Uchebnik arabskogo yazqka. M. 2003g.
2. V.G.Lebedev, Yu.I.Malyarov. Uchebnik po rechevoy praktika arabskogo yazika. Osnovnoy kurs. Chast-2. M.1984g.
3. V.G.Lebedev. Arabskaya grammatika. M.1984g.
4. Muhammad Fatih. قواعد اللغة العربية. بغداد-1975م
5. النحو الواضح. مصطفى أمين، علي جارم. بغداد 1998م.

MA'RUZA № 11

Mavzu: Arab va o'zbek tillarida sodda gapning qiyosiy tahlili

Dars o'quv maqsadi: Arab va o'zbek tillaridagi sodda gaplarning qiyosiy tahlili va grammatik xususiyatlari haqida ma'lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Gap, darak gap turlari.
2. Sodda gap, sodda yoyiq va yig'iq gap.
3. Darak gap tartibi, inversiya.
4. Ot, sifat, ravish, olmosh, sifatdosh.
5. Ega, kesim, moslashuv.

Asosiy savollar:

1. Gap deb nimaga aytiladi?
2. Sodda gap. Sodda gap turlari. Ularning arab va o'zbek tillaridagi talqini.

3. O'zbek va arab tillarida gap bo'laklarining ifodalanishi. Ma'lumki, gap orqali biz ma'lum fikrni bayon qilamiz.

So'zlar vositasi bilan anglatilgan fikr gap deb ataladi. Masalan: Paxtp xplqimizning eng qimmatli boyligidir.

Ayrim hollarda birgina so'z yordami bilan ham fikr ifodalanadi. Masalan: Kuz, kolxozchilar mo'l hosilni yig'ib olmoqdalar.

Demak, ba'zan birgina so'z ham gap bo'la oladi. Gapning ma'nosiga qarab o'zbek va arab tillarida yozuvda gapning oxirga nuqta, so'roq yoki nuqta belgisi qo'yiladi.

Sodda gap deb ega va kesimdan iborat bo'lgan jumlag aytamiz. Bunday jumla yig'iq sodda gap ham deb ataladi. Agar sodda gapdagi ega ismiy bo'lsa va uning moslashgan aniqlovchisi bo'lsa, yoki aksincha kesimning moslashgan aniqlovchisi bo'lsa, bunda jumla sodda yoyiq gap deb ataladi.

Gapda so'z tarkibi va gap turlari

Darak gap tarkibidagi gaplar o'zbek tilida ma'lum tartibda keladi.

Darak gapda birinchi o'rinda ega (undan oldin payt holi hamda aniqlovchi kelishi mumkin), ikkinchi o'rinda to'ldiruvchilar (o'ziga qarashli aniqlovchilari balin), uchinchi o'rinda ravish holi, to'rtinchi o'rinda kesim keladi. Masalan: Kecha yosh havaskor kolxozchilarga

katta konsert qo'yib berildi. Kolxozimizning klubi turli plakatlar bilan yaxshilab bezatildi.

Ammo darak gapda so'zlarning tartibi o'zgarishi mumkin.

1. Bugun maktab hovlisiga o'quvchilar to'plandilar.
2. O'quvchilar maktab hovlisiga bugun to'plandilar.
3. Bugun o'quvchilar maktab hovlisiga to'planadilar.

Yuqoridagi jumalardan ko'rinib turibdiki, darak gapdagi so'zlarning o'rin almashinishi bilan gap boshqacha tus oladi.

Gap tarkibidagi so'zlarning almashinishi inversiya deb ataladi. Inversiya ayniqsa, she'riyatda ko'p uchraydi. Inversiya nutqqa turli xil rang-tus beradi.

Ba'zan gapdagi ma'lum bir bo'laknigina alohida e'tibor beramiz va uni gapda boshqa bo'laklardan ajratib ko'rsatamiz. Bu hodisa login urg'u yoxud gap urg'usi deyiladi. Gap urg'usi inversiya bilan bog'langan bo'ladi. Alohida e'tibor berilgan bo'lak odatda fe'l kesimdan oldin keladi. Masalan: O'quvchilar maktab hovlisiga bugun to'plandilar (kecha emas, bugun). Bugun maktab hovlisiga o'quvchilar to'plandilar (boshqalar emas, o'quvchilar). Ba'zan gap urg'usi ohang bilan ifodalanadi. Gaplarning mazmun jihatdan turiga qarab, ularda so'z tartibi ham boshqacharoq bo'ladi.

Undov gaplarda ba'zan fe'l kesim gap boshida keladi: Yashasin o'zbek yoshlari! Yashasin bizning g'olib komandamiz!

So'roq gaplarda so'roq anglatuvchi so'z e'tiborni o'ziga jalb etgan bo'lak bilan birga fe'l kesimdan oldin keladi. Masalan: Maktabda qachondan beri o'qiysiz? Qaysi maktabda o'qiysiz? Har kuni necha dars o'qiysiz?

Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi

Gapda so'zlar bir-biri bilan bog'langan bo'ladi. Gapdagi so'zlarning o'zaro bog'lanishi ikki turli bo'ladi:

1. Teng bog'lanish, 2. Ergash bog'lanish.

Vazifasi bir xil bo'lgan so'zlarning bog'lovchi yordami bilan yoki bog'lovchisiz o'zaro birikishi teng bog'lanish deyiladi. Masalan: Keng ko'chalardan tramvay, avtomobilva trolleybuslar ketma-ket o'tib turadi.

Bu kabi hollarda vazifasi bir xil bo'lgan so'zlar bir-birini aniqlamaydi, gapning boshqa bo'laklariga nisbatan bir xil munosabatda bo'ladi.

Ergash bog'lanishda so'zlar biri ikkinchisiga tobe bo'lib, uni aniqlab, to'ldirib, izohlab keladi.

So'zlarning o'zaro ergash bog'lanishi turlidir:

1. Moslashuv, 2. Boshqaruv: Bitishuv.

1) Gapda so'zlar biri ikkinchisi bilan shaxs va son jihatdan moslashadi. Masalan: Men maktabdan keldim. Sen qachon kelding?

Bir so'zning ikkinchi so'zga ergashib, u bilan shaxs va sonda moslashib bog'lanishi moslashuv deb ataladi.

O'zbek tilida kesim har vaqt ega bilan shaxs jihatdan moslashgan bo'ladi. Arab tilida jins kategoriyasi va otlarda ikkilik kategoriyasi mavjud bo'lganligi uchun bunday moslashuv ushbu kategoriyalarni egani kesimdan avval yoki keyin kelishiga qarab moslashuv o'ziga xos ravishda yuz beradi. Masalan: الطالبات، الطالبات ذهبن

Qaraqich kelishigida kelgan ot yoki olmoshlar boshqa otlarga qaratilgan bo'lib, egalik qo'shimchalari orqali shaxs jihatdan moslashgan bo'ladi. Masalan: Erkin maktabning hamma ishiga aktiv qatnashadi. Mashrab yoshlik va yigitlik davrini juda qiyinchilik bilan o'tkazgan.

2) Gapdagi so'zlardan biri o'ziga qaratilgan boshqa so'zlarning bir kelishikda bo'lashini talab qiladi. Masalan: Sinfda tartibni saqlang. Bu yil talabalar Misrga o'qish uchun jo'naydilar.

Odatda o'timli fe'llar o'ziga qarashli otlarni tushum kelishigida, o'timsiz fe'llar esa, chiqish yoki jo'nalish kelishigida bo'lishini talab qiladi. Masalan: Erkin Sobirni ko'ribdi. U maktabga bordi. Bir predmet ikkinchisi bilan solishtirilganda, sifat bilan ifodalanagan kesimdan oldin kelgan ot chiqish kelishigida keladiva ular boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi. Masalan: Po'lat temirdan qattiqroq.

Shuningdek, ot va ravishlar ham o'zi bilan mazmunan bog'langan so'zning malum bir kelishikda bo'lishini talab qiladi va ular ham boshqaruv yo'li bilan bog'lanadi; Bundan ko'p, kunlardan bir kun.

3) Ko'p vaqt biror so'zning ikkinchisiga tobe ekanligini ayrim qo'shimchalar orqali ifodalanmay, manodan va so'z tartibidan bilinib turadi.

Bir so'zning ikkinchisi bilan moslashmay, boshqarilmay bog'lanishi bitishuv deb ataladi.

Predmetning belgi- sifatini, miqdorini aniqlab keladigan so'zlar aniqlangan so'zdan oldin kelib, ular o'zaro bitishuv yo'li bilan

bog'lanadi; katta ko'cha, katta ko'chadan, beshta o'quvchi, beshta o'quvchiga.

Shuningdek, hollar ham fel kesimdan oldin kelib, ular o'zaro bitishuv yzli bilan bog'langan bo'ladi: Men tez keldim. U zavqlanib gapirdi.

O'zbek tilida odatda ega bilan kesim bir-biri bilan shaxsda, sonda moslashadi. Ammo bu xususiyat o'zbek tili uchun qonun bo'la olmaydi. Chunki ega bilan kesim shaxsda moslashmasligi ham mumkin. Ega va kesimning sonda moslashmasligi esa meyoriy hol hisoblanadi. Masalan: Imoratlar qurildi.

Arab tilida esa majhul darajadagi fel ega (ot) bilan jinsda to'liq moslashadi. Masalan: كتبت الرسالة, كتب المكتوب.

Ega bilan kesimning shaxsda moslashmasligi ko'p o'rinda meyoriy (normal) sanaladi. Men o'qituvchi, sen o'qituvchi, u o'qituvchi; shuningdek, uchinchi shaxs formasi va kesimi ravishdosh yoki sifatdosh formasida bo'lgan ergash gaplarning kesimi ham ega bilan shaxsda moslashmaydi.

Bunday hollarda ega bilan shaxs va sonda moslashmagan so'zshakllari manosi (ega haqidagihukm, tasdiq yoki inkorni ifodalash bilan), vazifasi va o'rniga (o'zbek tilida kesim gap oxirida keladi) ko'ra kesim sanalaveradi.

Umumiy grammatik qoidaga muvofiq arab tilida ega (fel) ot kesim bilan moslashadi. Bunda eganing kesimdan oldin yoki keyin kelishiga qarab moslashuv turli holatda kechishi mumkin.

Agar feliy gapda egadan avval fel (kesim) kelsa, u faqat birlikda qo'yiladi va ega bilan jinsdagina moslashadi. Masalan:

ذهب الطالبان ذهب الطالبات
ذهبت الطالبات ذهب الطالبان

Ismiy gaplarda esa moslashuv ega va kesim o'rtasida feliy jumlalardagidek. Bazi jihatlari bilan o'xshab ketadi.

Agar jumladagi ega va kesim ot (sifat)dan tarkib topgan bo'lsa, shaxs nomini anglatuvchi ega kesim bilan to'liq moslashadi. Masalan:
ذهب الطالب عقالا. Agar kesim turdosh ot yoki biron bir narsa yoki predmetdan tarkib topgan bo'lsa ega va kesim bir-biri bilan jinsdagina moslashadi. Masalan: البيوت جميلة.

O'zbek va arab tillarida gap bo'laklarining ifodalanishi

O'zbek tilida darak gaplarda ega vazifasini ot, sifat, sifatdosh, son, olmosh va boshqa so'z turkumlari bilan ifodalanadi.

Darak gap kesimi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Aniqlik feli bilan: Salqin shamollargina qizning sochlari bilan o'ynashadi.

2. Otlar bilan: Inson qo'li gul.

3. Sifat bilan: Yer, dengizda qudratimiz juda zo'r.

4. Son bilan. Xammamizning osmon, yer, suvimiz bir.

5. Olmosh bilan: Dunyoda eng yaxshi odamlar ana o'shalar.

6. Ravish bilan: Tong yaqin, tong yaqin, oppoq tong yaqin.

7. Ish otlari bilan: Insonga hurmat – bu o'zini tanimoq.

8. Bor yoki yo'q so'zlari bilan: Halqimizning chuqur idroki bor, g'ururi, ananasi bor.

9. Tinch ohang bilan aytilib, darak- xabar manosini ifodalagan lominativ va to'liqsiz gaplar ham darak gap sanaladi. Don... Kuz... Achchiq shamol.

Arab tilida ega ot, sifat, substantiv sifat va sifatdosh, olmosh va son bilan ifodalanishi mumkin.

Kesim arab tilida jumla turiga qarab feliy va ismiy bo'ladi. Ismiy jumlalarda kesim ot, sifat, son, sifatdosh, ravishlar orqali ifodalanishi mumkin.

Yuqoridagi talqinlardan ko'rinib turibdiki o'zbek va arab tillaridagi sodda gaplarda malum o'xshashlik va tafovutlar bor ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Gap deb nimaga aytiladi?
2. Sodda gap nima?
3. O'zbek tilida darak gap tartibi qanday bo'ladi?
4. Inversiya nima?
5. Darak gap turlari qanday?
6. Arab tilida jumlaning tarkibi qanday?
7. O'zbek va arab tillarida bosh gap bo'laklari qanday ifodalanadi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Arab tilidagi sodda gapning maxsus turini o'zbek tilidagi muqobili bilan qiyosiy sharhlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. G'.Abduraxmonov. O'zbek tili grammatikasi. Toshkent. 1996g
2. G.Sh. Sharbatov. Sovremenniy arabskiy yazik. Moskva. 1982g.

3. B.Grande. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno istoricheskoy osvesheni. Moskva.1998g.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Arab tili darsligi (tarkib qoidalari) "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. T.2009y.
2. O.Musaev. Arab tili asosiy qoidalar tizimi. T.-2000y.
3. Sunnatulloh Bekpo'lat. Arab nahvi. T.-2007y.
4. Muhammad Fatih. قواعد اللغة العربية. بغداد-1975م.
5. V.S.Xranoveniy. Ocherk po obshemu arabskomu sintaksisu. M.-1973g.

MA'RUZA № 12

Mavzu: O'zbek va arab tillarida ergashgan qo'shma gaplar va uning turlari

Dars o'quv maqsadi: Arab va o'zbek tillarida qo'shma va ergash gaplarning tarkibi, ular orasidagi tafovut va ergash gaplarning tarjima xususiyatlari haqida malaka va ko'nikmalar hosil qilish.

Tushunchalar va tayanch iboralar:

1. Qo'shma gap, ergash gap;
2. Bog'langan qo'shma gap;
3. Qo'shma gap, mazmun, maqsad;
4. ثم، من، اللاتي، الذين، التي، الذي
5. ضمير عائد, aniqlovchi ergash gap;

Asosiy savollar:

1. O'zbek va arab tillarida qo'shma va ergash gaplar;
2. Qo'shma gaplarning asosiy belgilari;
3. O'zbek va arab tillarida aniqlovchi ergash shapning ifodalanishi;
4. Arab tilidagi aniqlovchi ergash gapda aniqlovchi ergash gap tomonidan bosh gapning aniqlanib kelayotgan gap bo'lagi aniq va noaniq holatda bo'lishi
5. Arab va o'zbek tillaridagi aniqlovchi ergash gaplarning o'xshash va bir-biridan farqli jihatlari

1. O'zbek va arab tillarida qo'shma va ergash gap

Mazmuni, grammatik tuzilishi hamda ohangiga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan, bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida birikkan qurilmalar qo'shma gapni tashkil etadi.

Boshqacha aytganda ikki yoki bir necha sodda gapning birlashuvidan tuzilgan gaplar qo'shma gap deb aytiladi. Mazkur sodda gaplar mazmunan yaxlit holda birikib, umumiy bir fikrni, maqsadni ifodalaydi. Bunday gaplar turli bog'lovchilar yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar yordamida, yoxud turlicha ohang bilan o'zaro birikadi.

Qo'shma gapning asosiy belgilari:

1. qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar birini yoki biri ikkinchisini mazmunan izohlaydi va har ikkisi birikib umumiy maqsadni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan: qo'shning tinch – sen tinch. Bu qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplar umumiy fikrni – kishining tinchligi nima bilan bo'lishini ifodalaydi, bu mazmun har bir gap alohida olganda anglashilmay qoladi.

2. Qo'shma gap tarkibidagi gaplar grammatik tomondan ham bir-biriga bog'liq bo'ladi. Bu xil gaplar kesimning bir xil yoki bir-biriga mos shaklda ekanligi, ularda umumiy ikkinchi darajali bo'laklarning bo'lishi, sodda gaplar tarkibida mazmuni izohlanayotgan bo'laklarning mavjudligi, kesimlar bir xil bo'lganda ularning bir o'rinda umumiydashgan holda berilishi va boshqa xususiyatlar – qo'shma gap tarkibiy qismlarini tuzilishi tomonidan bir biriga yaxlit bog'lab qo'yadi.

3. Qo'shma gap tarkibidagi gaplarning ohang jihatdan ham o'ziga xos xususiyati bor

O'zbek tilidagi qo'shma gaplar ma'lum mazmun munosabatlarini ifodalashi, grammatik belgilari, tuzilishi va ohangiga ko'ra uch tipga bo'linadi:

1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar;
2. Bog'langan qo'shma gaplar;
3. Ergash gapli qo'shma gaplar.

Arab tilida ham o'zbek tilida ham bog'langan qo'shma gaplarga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Bog'langan qo'shma gap deb teng huquqli biri ikkinchisiga ergashmagan (bo'ysunmagan) sodda gaplardan tuzilgan qo'shma gaplarga bog'langan qo'shma gaplar deb aytiladi.

Arab tilida qo'shma gaplar bog'lanishiga qarab 4 turga bo'linadi;

1. Biriktiruvchi bog'lovchilar bilan bog'langan gaplar; ثم، ف، و bog'lovchisi jumlar va uyushgan jumalarni bog'laydi. Bunday jumalarda ish harakat bir vaqtda amalga oshirilishi kerak.

Vaqt nuqtai nazaridan bajarilish ketma-ketligi nazarda tutilgan qo'shma gaplar ف ثم bog'lovchilari bilan bog'lanadi. Ayniqsa, katta vaqt oralig'ida bo'lib o'tgan jumlani avvalgisi bilan bog'laydi.

ذهبت إلى الجامعة ثم زرت صديقي محموداً

Hozirgi arab tilida va (و) bog'lovchisi zamon munosabatlarini (ish-harakatning bir vaqtda bo'lib o'tganligini) ifoda etish uchun qo'llaniladi.

U 5 yoshga kirganda otasi vafot etdi. توفي أبوها وهي في الخامسة من عمرها

Shuningdek, ish-harakat bevosita hamroh bo'lgan holatni ifodalashda qo'llanilishi mumkin.

U xonani tark eta turib yig'ladi. تركت الغرفة وهي تبكي

Buni arab tilida الجملة الحالية deb ataydilar bunday jumlaning xususiyati shundan iboratki, ikkinchi jumlaning egasi shaxsiy olmosh tarzida takrorlanadi. Kesim esa hozirgi kelasi zamonda qo'yiladi.

Zidlovchi bog'lamalar bilan bog'langan qo'shma gap. Bunday gapda qo'shma gapning bir bo'lagi aytilgan fikr boshqa bo'lakdagi fikrga zid bo'ladi. Bu yerda zidlovchlik munosabati quyidagi bog'lamalar yordamida erishiladi:

إلا أن، على أن، لكن، لكن،

4. Ajratuvchi (ayiruvchi) bog'lamalar bilan kelgan qo'shma gap.

Bunday qo'shma gap turida bir-biriga zid bo'lgan hodisalar yoki bo'lmasa ish-harakatning bir vaqtda bajarilishiga yo'l qo'yilmaydi. Boshqacha qilib aytganda biror voqeani boshqasidan ayirib yoxud voqealarning galma-gal bo'layotganligini anglatish uchun أو yoki, takrorlanuv bog'lovchilar إما.....إما "yoki,.....yoxud", shuningdek, bir-biridan farq qiluvchi turli jinsdagi bog'lovchilar أو.....إما "yoki,.....yoki" bog'lovchilari qo'llaniladi.

إما نموت معاً إما نعيش معاً

Qo'shma gaplarda ohang jumlar tarkibi u yoki bu faol shakli leksik va fraziologik elementlarining qo'llanilishi katta rol o'ynaydi.

O'zbek tilida ergash gapning kesimi quyidagi so'z turkumlari orqali tuziladi:

1) Sifatdoshning -r/-mas shakli turi va shu shaklning ekan ko'makchi fe'l bilan birikkan shakli payt ergash gapning kesimi bo'lib keladi. *Majlis tugar-tugamas, Siddiqjon lip etib chiqib ketdi.*

2) Ravishdoshning (i), -may, -gach, -guncha shakli turli ravish, payt, shart, to'siqsiz kabi ergash gaplarning kesimi vazifasida keladi.

Vodokachka bitgunch, ariqlar tayyor bo'ladi.

3) Buyruq mayli. Buyruq mayli to'siqsiz ergash gapning kesimi sifatida qo'llaniladi. *Ular yuzlarcha qo'l bo'lsin, Yo'lchi ular bilan yolg'iz kurashajak, bo'g'ishajak.*

4) Shart fe'li deyarli hamma ergash gaplarning kesimi vazifasida keladi.

5) Fe'l. *Kimki mehnatning zo'rini qildirishi – odamning sarasi ana u.*

Mustaqil ravishda ma'lum shaxs ko'rsata oluvchi fe'llar ham ergash gaplarning kesimi vazifasida qo'llaniladi. Ammo kesim mustaqil fe'ldan ifodalanuvchi ergash gaplarda ma'lum grammatik va leksik-grammatik vositalar bo'ladiki, ular ergash gapni alohida ajratib turadi. Bunday vositalarga bog'lovchilar (-ki, agar, chunki, toki, deb), yuklamalar (-mi, xuddi), nisbiy olmoshlar kiradi.

6) ergash gapning kesimi ko'p o'rinlarda ot-kesim shaklida bo'lib, ot, sifat, son, ravish va boshqa modal ma'noli so'zlar orqali ifodalanadi. *Toki sen borsan, men ham tirikman.*

7) harakat nomi ko'makchilar bilan birga ergash gapning kesimi bo'lib kela oladi. *Bu shartnoma mustahkam bo'lishi uchun, podsho hazratlaridan so'ralsin.*

O'zbek va arab tillarida aniqlovchi ergash gapning ifodalanishi

O'zbek tilida aniqlovchi ergash gap bosh gap tarkibidagi ot yoki olmosh orqali ifodalanagan biror bo'lakning belgi, xususiyatini izohlab keladi.

Aniqlovchi – izoh ergash gap har vaqt bosh gapdan so'ng keladi. Bu xil ergash gaplar bosh gap tarkibida *shunday*, bir olmoshlari va unga mos holda ergash gap tarkibida *bunday*, *bu*, *bu xil* yoki *u*, uning olmoshlari bo'lib, ergash gap bu olmoshlar orqali aniqlanmish-otning ma'nosini izohlaydi, to'ldiradi. Bosh gapdagi olmoshlar aniqlovchi vazifasida, ergash gapdagi olmoshlar esa, turli vazifada keladi. *Bu shunday ajib diyorki, uning zo'r ko'zgusi oydir.*

Aniqlovchi ergash gap deb, ergash gap shaklidarasmiylashtirilgan aniqlovchini aytamiz. U bosh gapning ot yoki ot vazifasini bajarib kelayotgan birorta bo'lagini aniqlab, izohlab keladi. Shuningdek, aniqlovchi ergash gaplar barcha aniqlovchilar kabi belgiga ham ishora qiladi. Odatda, aniqlovchi ergash gap o'zi aniqlab kelayotgan so'z-anqiqlanmishdan keyin qo'yiladi. Arab tilida bu turdagi gaplar bosh gapning o'rtasi yoki oxiridan joy olishi mumkin.

Aniqlovchi ergash gapning bosh gap ergashuvi ikki turli vositasiz va vositali bo'ladi.

1) bosh gapning aniqlovchi ergash gap tomonidan aniqlab kelayotgan gap bo'lagi grammatik aniq bo'lsa, ergashuv vositali, ya'ni nisbiy olmoshlar yordamida amalga oshiriladi.

2) bosh gapning aniqlovchi ergash gap tomonidan aniqlab kelayotgan bo'lagi noaniq bo'lsa, ergashuv vositasiz, ya'ni olmoshlarisiz amalga oshiriladi. Arab tilidagi aniqlovchi ergash gap o'zbek tilidagi ergash gapga qaraganda bir muncha tarkib jihatdan soddaroq.

جاء الطالب الذي يتعلم في الجامعة - جاء طالب يتعلم في الجامعة

Bu yerda vosita vazifasini nisbiy olmoshlar التي (uning hosilalari من، ما) kabilar bajaradi.

Biroq nisbiy olmosh mustaqil va o'zi boshlab kelayotgan ergash gapning hech bir bo'lagiga tobe munosabat saqlamaydi. Demak, u ergash gapning tarkibiy qismi sifatida qabul qilinmaydi ham, balki ergash gapning o'zi uning mazmunini mantiqan kengaytirib boradi. Ergash gapning ergashtiruv ko'rsatkichlari الذي va uning guruhi son va jinsda aniqlanishi bilan moslashadi.

Bosh gapning aniqlanayotgan bo'lagi juda ko'p hollarda aniqlovchi ergash gapning mantiqiy egasi sifatida talqin etiladi. Biroq mazkur so'z ergash gapdagi ikkinchi darajali bo'laklarning biri bo'lib kelishi ham mumkin. Bu holda qaytuvchi olmosh paydo bo'ladi. U shaklan uchinchi shakldagi birikma olmoshlariga monand bo'ladi.

Qaytuvchi olmoshlar bosh gap tarkibida bo'la turib, aniqlovchi ergash gap bilan grammatik munosabatda bo'lgan bo'lakning ergash gapdagi "nuxxasi" yoki "vakili" bo'ladi - unga ishora qiladi. U bilan son va jinsda moslashadi.

O'zbek tilidagi aniqlovchi ergash gap bosh gapga bog'lanishi, sintaktik tuzilishi, ergash gapning kesimi ifodasi bilan aniqlovchi ergash gapdan farq qiladi.

Arab tilidagi aniqlovchi ergash gapbosh gap bilan nisbiy olmoshlar yordamidagina qo'llaniladi. U ko'proq rus tilidagi aniqlovchi ergash gapga o'xshab ketadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Qo'ma gap deb nimaga aytiladi?
2. Ergash gap deb nimaga aytiladi?
3. Qo'shma gapning asosiy belgilari nimalardan iborat?
4. O'zbek tilidagi qo'shma gaplar necha tipga bo'linadi?
5. Arab tilida qo'shma gaplar qanday bog'lanadi?
6. O'zbek va arab tilidagi aniqlovchi ergash gapning qanday o'xshash va farqli jihatlari bor?

Mustaqil ish topshiriqlari:

ما va من nisbiy olioshlari ishtirok etgan aniqlovchi ergash gapni o'zbek tilidagi muqobili bilan qiyosiy tahlil qiling va ularning tarjima xususiyatlarini aniqlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. Grande B.M. Kurs arabskoy grammatiki v sravnitelno-istoricheskoy osveshenii. M.1998g.
2. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi T.1997y.
3. G'.Abdurahmonov. O'zbek tili grammatikasi. T.1996y.

Qo'shimcha adabiyotlar:

4. K.Kuzmin. Uchebnik arabskogo yazqka. M. 2003g.
5. V.G.Lebedev, Yu.I.Malyarov. Uchebnik po rechevoy praktika arabskogo yazqka. Osnovnoy kurs. Chast-2. M.1984g.
6. F.Abdullaev So'zlar o'zaro qanday bog'lanadi? T. 1974y.
7. عماد خاتم. اللغة العربية. 1981م.
8. قواعد اللغة العربية. بغداد-1975م. Muhammad Fatih.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ibrohimov N.I., Yusupov M. Arab tili grammatikasi T.1997y.
2. G'.Abdurahmonov. O'zbek tili grammatikasi. T.1996y.
3. Гранде Б.М. "курс арабской грамматики в сравнительно-историческом освещении" М.1998 г.
4. Arab tili darsligi (tarkib qoidalari) "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi. T.2009y.
5. O.Musaev. Arab tili asosiy qoidalar tizimi. T.-2000y.
6. Sunnatulloh Bekpo'lat. Arab nahvi. T.-2007y.
7. Г.Ш.Шарбатов "Современный арабский язык" М. 1982 г.
8. Muhammad Fatih. قواعد اللغة العربية. بغداد-1975م
9. В.С.Храковский "Очерк по общему арабскому синтаксису" М.-1973 г.
10. "Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков". А.А. Азизов Ташкент 1983 г.
11. Халидов Б.З. "Учебник арабского языка" Т. 1984 г.

MUNDARIJA

Arab va o'zbek tillarining grammatik qurilishi haqida umumiy qiyosiy ma'lumot	4
Arab va o'zbek tillarida so'z turkumlari	11
Arab va o'zbek tillari fonetikasining qiyosiy tahlili	15
Arab va o'zbek tillarida fe'llarning qiyosiy tasnifi	19
Arab va o'zbek tillarida sifat va uning turlari	23
Arab va o'zbek tillarida sonning ifodalanishi	29
Arab va o'zbek til olmoshlar va ularning qiyosiy tasnifi	32
Arab va o'zbek tillarida grammatik son va kelishik kategoriyalarining ifodalanishi	38
Arab va o'zbek tillarida moslashuv kategoriyasining ifodalanishi	42
Arab va o'zbek tillarida otlarning turlari	46
Arab va o'zbek tillarida soda gapning qiyosiy tahlili	53
O'zbek va arab tillarida ergashgan qo'shma gaplar va uning turlari	58

Qaydlar uchun:

Nosir Ma'rufovich Orifxo'jayev

Texnik muharrir:

M.X. Mirafzalov

Kompyuter verstkasi:

M.X. Mirafzalov

Musahhih:

A. Asqarov

Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti O'quv-uslubiy kengashining qarori (22.08.2011 y., 1-sonli bayonnoma) bilan nashrga tavsiya etilgan.

Bosishga ruhsat etildi 15.11.2011.
Bichimi 60x84 $\frac{1}{16}$ Shartli 4,25 b.t. 50 nusxada bosildi.
Buyurtma №14

© N.M. Orifxo‘jayev
© Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti 2011